

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK 821.512.136

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

RO‘ZMETOVA MEHRIYO NURADDIN QIZI

**ISLOM KARIMOV ASARLARINING TILI VA USLUBI
("YUKSAK MA'NAVIYAT-YENGILMAS KUCH" ASARI ASOSIDA)**

5A 120102 – Lingvistika (o‘zbek tili)

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

dissertatsiya

Ilmiy rahbar:

f.f.n., dots. A.Primov



Urganch-2019

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. ISLOM KARIMOV VA O‘ZBEK TILINING MUSTAQILLIK DAVRIDAGI TARAQQIYOTI	9
1.1. I.Karimovning til haqidagi qarashlari.....	9
1.2. I.Karimov asarlari tilining o‘ziga xos xususiyatlari.....	25
1.3. “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida til siyosati masalalari.....	35
I Bob bo‘yicha xulosa.....	42
II BOB. “YUKSAK MA’NAVIYAT-YENGILMAS KUCH” ASARI TILINING LEKSIK XUSUSIYATLARI	44
2.1. Asar tilining leksik tarkibi.....	44
2.2. Maqollarning qo‘llanilishi.....	49
2.3. Qo‘llanish davri chegaralangan so‘zlar.....	53
II Bob bo‘yicha xulosa.....	55
III BOB. “YUKSAK MA’NAVIYAT-YENGILMAS KUCH” ASARI TILINING USLUBIY XUSUSIYATLARI	56
3.1. I.Karimovning matn yaratish mahorati.....	56
3.2. Asar tilining ma’naviy-uslubiy xususiyatlari.....	61
III Bob bo‘yicha xulosa.....	63
XULOSA	65
ADABIYOTLAR RO‘YXATI	67

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Islom Karimov mustaqil O‘zbekiston davlatining asoschisi, zamonaviy o‘zbek notiqlik san’atining yorqin namoyandasi, atoqli davlat arbobi, mohir so‘z san’atkori, etuk olim edi. Uning serqirra ijodi ijtimoiy-falsafiy, lingvistik, lingvoslubiy nuqtayi nazardan o‘rganilishga loyiq mohiyati bilan alohida ajralib turadi. Uning faqatgina siyosat, davlat boshqaruvi bilan cheklanib qolmasdan, ijtimoiy-ma’naviy sohada ham beqiyos faollik ko‘rsatgani olimga bo‘lgan hurmatimizni yanada ziyoda qiladi.

Buyuk siyosatchi va olimning o‘tkir falsafiy qiymatga ega bo‘lgan asarlari, ma’naviyat haqidagi sermazmun nutqlarini o‘qigan kitobxon hayratga tushadi.

Islom Karimovning qalamida ona tilimiz xazinasidagi har bir so‘z yangidan yangi imkoniyatlarini namoyon qiladi, beqiyos falsafiy mazmun va mohiyat kasb etadi. Islom Karimov o‘zbek tilining ham jonkuyari edi. Fikrini og‘zaki tilda ravon bayon qilganidek, yozma tili, uslubi ham, yozgan barcha asarlarining tili ham nihoyatda jozibali edi. Ma’naviyatimiz to‘g‘risida yozgan buyuk insonning ayni fazilati boshqa ko‘pgina siyosatchilar va olimlarga o‘rnak bo‘larlidir. Aytilganlar davlat arbobi va olim asarlari tilini turli lingvistik aspektda o‘rganish zarurligini taqozo qiladi. Islom Karimov asarlari tili va uslubini ilmiy tadqiq qilish esa bu borada bajariladigan ishlarning debochasi bo‘lmog‘i lozim. Bu holat ushbu magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o‘z ma’ruzasida yosh avlodning tarbiyasida asrlar mobaynida shakllangan milliy an’analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanishimizni aytib o‘tdi¹. Islom Karimov xotirasini abadiylashtirish, uning merosini o‘rganish bo‘yicha farmon va qarorlar qabul qildi. Haqiqatdan ham xalqimiz va tilimiz tarixini o‘zida saqlab kelayotgan Islom Karimov asarlarining lisoniy xususiyatlarini o‘rganish o‘zbek tili lug‘atining boyish yo‘llarini ko‘rsatib

¹Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови (2016 йил 7 декабрда Ўзбекистон Республикаси конституцияси қабул қилинганлигининг 24 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза). – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.23

berishda, nutq madaniyati va notiqlik san'ati bo'yicha turli lisoniy hodisalarga oydinlik kiritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2016-yil 30-dekabr kuni Respublikaning yetakchi olimlari bilan uchrashuvida so'zlagan nutqida barcha fanlar sohasida ilmiy izlanishlarni kengaytirish kerakligini ta'kidlagan edi. O'zbek tilshunosligida keyingi yillarda o'zbek tilining o'ziga xos tizimli tuzilishga ega ekanligi teran ilmiy izlanishlar orqali tobora aniqroq isbotlab berilmoqda. O'zbek tili birliklarining nutqda qo'llanish imkoniyatlarini to'la ochib berish, har bir guruhga kiruvchi so'zlarning barcha xususiyatlarini o'rganish borasida keng ko'lamli ishlar boshlab yuborilganligi quvonarli. Biroq tilshunosligimizda haligacha o'z yechimini topmagan muammolar ham anchagina. Islom Karimov asarlari tilining o'zbek tilida tutgan o'rni va boshqa asarlar tiliga ta'siri va istiqboli haqida, turli lisoniy birliklarining o'ziga xos belgilari, bu belgilarni tadqiq qilish tamoyillari haqida lingvistik tadqiqot amalga oshirilmagan. Qayd etilganlar ushbu dissertatsiya mavzusining dolzarbligidan dalolat beradi.

Tadqiqot obyekti va predmetining belgilanishi. Tadqiq obyekti – Islom Karimov asarlari. Tadqiq predmeti - davlat arbobi, olim asarlarining tili va uslubi. Tadqiq material sifatida esa asosan “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch” asari belgilangan.

Tadqiqotning maqsadi hamda vazifalari. Ushbu ishning asosiy maqsadi atoqli olim, O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlarining tili va uslubiy o'ziga xosligini tadqiq etishdan iborat.

Ushbu maqsadni amalga oshirish jarayonida quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- davlat rahbarlari asarlari tili va uslubini o'rganishning vazifa va muammolarini bayon qilish;
- Islom Karimov asarlari tilining filologik tadqiqi masalasini yoritish;
- Islom Karimovning “Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch” asaridagi o'zbek tili haqidagi fikrlariga ilmiy baho berish;

Islom Karimovning soʻz qoʻllash mahoratini “Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch” asari asosida tahlil etish va ochish;

- Islom Karimov asarlaridagi obrazli ifodalar haqida ilmiy xulosa berish;

- “Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch” asari dagi tasviriy matnning hususiyatlarini aniqlash.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.

1. Islom Karimov ijodi turli aspektdagi siyosatshunoslik va tilshunoslik yoʻnalishlarining tadqiq manbayi boʻla oladi.

2. Islom Karimov – ilmiy-tanqidiy va publitsistik, davlat boshqaruvi yoʻlidagi ijodi bilan oʻzbek adabiy tili taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshgan olim.

3. Islom Karimov nutqining taʼsirchanligi davlat arbobi va olim asarlari tilining oʻziga xosligini koʻrsatuvchi asosiy omildir.

4. Islom Karimov uslubining ravon va jozibadorligi uning teran tafakkuri hamda yuksak lisoniy didi bilan belgilanadi.

5. Islom Karimov tasviriy nutqida real shaxs va jonli voqelikni ifodalash ilmiylik va kasb etadi.

6. Islom Karimovning matn yaratish mahorati uning asarlarida yaqqol namoyon boʻladi..

Mavzu boʻyicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Til lisoniy imkoniyatining maʼlum bir shaxs asarlarida voqelanish xususiyati tadqiqotchilar tomonidan har xil aspektda turli metodologik va metodik asosda oʻrganib kelinmoqda. Buni oʻzbek tilshunosligida badiiy asar tilining lisoniy xususiyatini oʻrganish¹, til birligining

¹Назарова О. О языке произведений Хамзы Хакимаде Ниязи: Автореф. дисс... канд. филол. наук. -Ташкент, 1944; Рахматуллаева М. К вопросу изучения синонимов в языке Алишер Навои: Автореф. дисс....канд. филол. наук. - Ташкент, 1965; Рустамов А. Алишер Навоий асарлари тилининг фонетик ва морфологик хусусиятлари: Филол. фанлари докт. ...дисс. - Тошкент, 1969; Самадов К. Некоторые вопросы языкового мастерства Айбека: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. - Ташкент, 1965; Бафоев Б. Сложные существительные в лирике Алишера Навои: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. -Ташкент,1968; Шомаксудов А. Муқимий сатираларининг тили, - Тошкент, 1970; Чарьев Б. Некоторые вопросы лексики поэзии Г.Гуляма: Автореф. дисс....канд. филол. наук. -Ташкент, 1972; Каримов А. Лексико-семантические и стилистические особенности языка поэмы «Фархад и Ширин»: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. -Ташкент, 1973; Яриев Б. Язык поэзии Максуда Шайхзаде: Автореф. Дисс... канд. филол. наук. -Ташкент, 1979; Махматмуратов Ш. Язык «Дивана» Хамзы Хакимаде Ниязи: Автореф. Дисс... канд. филол. наук, -Ташкент, 1982; Каримов С. Язык и стиль произведений Зулфии: Автореф. дисс....канд. филол. наук. -Ташкент, 1983; Аширбоев С. Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг таркиби ва маъно хусусиятлари: Филол. фанлари. докт. ...дисс. автореф. - Тошкент, 1990; Абулхайров М. “Девони Мунис” тилининг лексик

lingvoslubiy¹ hamda lingvobadiiy² tadqiqi sifatida ajratish mumkin. Biroq o‘zbek adabiy tili taraqqiyotiga, davlatchilikning shakllanishiga ulkan hissa qo‘shgan atoqli shaxs ijodi, xususan, uning asarlari tili esa hali mustaqil holdagi lingvistik tadqiq manbai bo‘lmagan. Bu holat atoqli so‘z san’atkori, o‘zbek ijtimoiy tafakkuri rivojiga munosib hissa qo‘shgan siyosatshunos, iqtisodchi olim, buyuk davlat arbobi Islom Karimovning monografik yo‘sinda maxsus filologik tadqiq manbai sifatida o‘rganilmagan ilmiy-ommabop nutqiga ham oid.

Publitsistika va ilmiy uslubda keng qamrovli til birliklari – fonetik, leksik, grammatik va majoziy vositalarni kuzatish mumkin. Shu bilan birga buyuk davlat arbobining so‘z boyligidan o‘ziga xos tarzda foydalanishi, morfologik shakllar va sintaktik qurilmalarni tanlashi va boshqa jihatlarida muallifning individual uslubi ham yuzaga chiqadi.

O‘tgan asrning 40-yillaridan boshlab muallif tili, uslubi, badiiy asar tili bo‘yicha tilshunoslar ham, adabiyotshunoslar ham baravar tadqiqot olib bora boshladilar. Bunday ishlar, dastlab maqolalar tarzida, keyinroq nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida tadqiq etildi. Bu tadqiqot ishlarida badiiy adabiyot tili muammolari borasida turlicha qarashlar mavjud. Masalan, S.Mamajonov, O.Sharafiddinov, N.Karimov, N.Shukurov, M.Sultonova, J.Tursunov, Y.Solijonov,

катламлари: Филол. фанлари. номз. ...дисс. автореф. - Тошкент, 1996; Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати: Филол. фанлари. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Азимов И. Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг таркибий ва маъно хусусиятлари: Филол. фанлари. номз. ...дисс. автореф. - Тошкент, 2000; Сайидов Е. Фитрат бадий асарлари лексикаси: Филол. фанлари. номз. ...дисс. автореф. - Тошкент, 2001; Раҳматов М. Алишер Навоийнинг насрий асарларида -чун боғловчили гапларнинг синтактик хусусиятлари: Филол. фанлари, номз. ...дисс. автореф. - Тошкент, 2006 ва б.

¹Шоабдурахмонов Ш. “Равшан” достонининг тили ва стили: Филол. фанлари. докт. ...дисс. - Тошкент, 1949; Мамадов Х, Лексико-стилистические особенности художественной прозы Алишера Навои: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. - Тошкент, 1969; Чориев Т. Садриддин Айний публицистик асарларининг тили ва услуби (лексика ва фразеология): Филол. фанлари. номз. ...дисс. автореф. – Самарқанд, 2004; Чориева З. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романидаги мактубларнинг луғавий-маъновий ва услубий хусусиятлари: Филол. фанлари. номз. ...дисс. автореф. - Тошкент, 2006; Хасанов А. Абдулла Каҳҳор ҳикоялари тилининг бадийтадини таъминловчи лексико-стилистик воситалар: Филол. фанлари. номз. ...дисс. автореф. -Тошкент, 2011.

²Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. Дисс. ...докт. филол. наук. - Ташкент, 1991; Маҳмудов Н. Абдулла Каҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. 1987. - № 4; Муҳаммаджонова Г, 80-йиллар охири ва 90-йиллар бошлари ўзбек шеъриятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари, номз. ...дисс. автореф. - Тошкент, 2004; Хамидов З. Лексико-семантическое и лингвопоэтическое исследование языка «Лисан ат-тайри»: Автореф. дисс. ... канд филол. наук - Ташкент, 1982; Йўлдошев М.М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати: Филол. фанлари. номз. ...дисс. автореф. - Тошкент, 2000; Ибрагимова Ф. Бадий матнда эллипсис ва антиэллипсис: Филол. фанлари номз. ...дисс. автореф. -Тошкент, 2011.

G.Imomova, A.Boboniyozovlar masalaga adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan yondashsalar, A.Shomaqsudov, Sh.Shoabdurahmonov, S.To‘rabekova, B.Turdialiyev, Q.Samadov, A.Y.Aliyev, S.A.Karimov, M.Yo‘ldoshev, R.U.Normurodov, S.Qurbonova kabi olimlar tilshunoslik aspektida tahlil qiladilar.

O‘zbek tilshunosligida publitsistik uslub, xususan, gazeta tili va uslubi, publitsistik janrlarning o‘ziga xos xususiyatlari K.Yusupov, A.Boboyeva, S.Muhamedov, T.Qurbonov, A.Abdusaidov tomonidan ma’lum darajada tadqiq etilgan¹. O‘zbek tilshunosligida keyingi yillarda muayyan davlat arbobi, siyosatchilar asarlarining til va uslubiy xususiyatlari, matn yaratish mahorati kabi muammolar maxsus o‘rganilgan emas. Shu bilan birga, I.Karimov asarlarining lisoniy xususiyatlari uning “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asari asosida ilk bor tadqiqot ostiga olinmoqda.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asari asosida asarlarini lingvostilistik jihatdan o‘rganishga hissa qo‘shadi. Ishda qo‘llangan tadqiq metodlari har qanday muallifning lisoniy birliklardan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganishda samarali usul ekanligini asoslaydi va tadqiqot shu sohada kelgusida bajarilajak ishlar uchun nazariy manba vazifasini o‘taydi.

Tadqiqot Islom Karimov asarlarini o‘qitish, “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarini o‘rganish, taniqli so‘z san’atkorlari asarlari tilining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga doir adabiyotshunoslik va tilshunoslik fanlari bo‘yicha ixtisoslik ta’limi hamda tanlama fanlar tashkil etish, muallifning individual uslubi, nutq madaniyati va publitsistik leksika bo‘yicha darslik hamda qo‘llanmalar yaratish, shuningdek, o‘zbek filologiyasi hamda nutq madaniyati va notiqlik yo‘nalishlarida olib boriladigan ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlar uchun material,

¹Қаранг: Юсупов К. Ўзбек адабий тилининг лексик-семантик ва стилистик хусусиятлари.- Тошкент: Фан, 1986. Курбанов Т. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка: Автореф.дис....канд.филол.наук. - Ташкент, 1987. - 22 с. Бобоева А. Газета тили ҳақида. –Тошкент, 1983; Бегматов Э., Бобоева А., Асомиддинова И. Адабий норма ва нутқ маданияти. – Тошкент: Фан, 1983. Абдусaidов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол.фан.докт....дис. автореф. – Самарқанд, 2005. - 48 б. ва бошқалар.

ommaviy axborot vositalari xodimlari uchun manba sifatida foydalanishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Mazkur dissertatsiya ishida quyidagi ilmiy natijalarga erishildi:

- ilmiy, ilmiy-ommabop asrlar tili va uslubini o'rganishning vazifa hamda muammolari bayon qilindi;

- ilk bor Islom Karimov asarlari tilining lingvoslubiy tadqiqi masalasi "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asari asosida yoritildi;

- Islom Karimovning davlat tili haqidagi fikrlari birinchi marta monografik tarzda tadqiq qilindi;

- Islom Karimovning o'ziga xos so'z qo'llash mahorati ochildi;

- Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asaridagi obrazli ifodalar ilmiy tavsiflandi;

- Islom Karimovning ilmiy, publitsistik matn yaratish mahorati baholandi.

- dissertatsiyada asar tiliga xos bo'lgan barcha grammatik vositalar tadqiqot materiali bo'lgan asardan ijodiy ravishda tanlab olinib, ular lisoniy tahlil qilindi va o'zbek tili hozirgi davridagi grammatik qurilishi, uni tashkil etuvchi til birliklari hamda ularning funksional xususiyatlari ko'rsatib berildi. Bunda qator fonetik, leksik, morfologik, sintaktik qonuniyatlarning amal qilish yo'llari aniqlandi. Ana shu nuqtayi nazardan asar tilining tuzilishi hodisasini daliliy misollar orqali isbotlash, ko'pgina til birliklarining asar matnidagi vazifasi, uslubiy xususiyatlarini ling aniqlanishi ishning ilmiy yangiligini tashkil etadi.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Ish kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi 80 sahifani tashkil etadi.

I BOB. ISLOM KARIMOV VA O‘ZBEK TILINING MUSTAQILLIK DAVRIDAGI TARAQQIYOTI

1.1. Islom Karimovning til haqidagi qarashlari



O‘zbekistonning milliy mustaqillikka erishishi – zamonamizning eng muhim voqeasidir. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek: “Bugungi hayotimizning kechagi kunimizdan asosiy farqini topmoqchi bo‘lsak, bu avvalo odamlarning tafakkuri o‘zgarib, aniqrog‘i, yuksalib borayotgani bilan belgilanadi”.

Aynan jamiyat tafakkuridagi jiddiy o‘zgarishlar, milliy ma’naviy yuksalish uning san’atdagi in’ikosini tadqiq etish ehtiyoji zamon talabiga aylanmoqda.

Prezident I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarini o‘rganish, shu asar asosida yuksak ma’naviyatning tilimiz taraqqiyotiga qo‘shadigan hissasini ilmiy asosda tahlil etish, tilning inson ongi va shuuriga emotsional ta’sir ko‘rsatish usulidan samarali foydalanish orqali yoshlarni ma’naviy kamolotiga erishish bizga, xususan jamiyatga, davlatga sadoqatli, vatanparvar, millatparvar, milliy an’ana va qadriyatlarga sodiq, ma’naviyati yuksak insonlarni tarbiyalash imkonini beradi.

Ma’lumki, mustaqillikning dastlabki yillaridan ma’naviyat va ma’rifat masalalari eng ustivor yo‘nalishlardan hisoblandi. Biz buni Prezidentning 1994-yil 23-aprelda “Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazini tashkil etish to‘g‘risida” 1996-yil 9-sentyabr “Ma’naviyat va ma’rifat” markazi faolityaini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to‘g‘risida” 1999-yil 3-sentyabrda “Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmonlarida va 1996-yil 9-sentyabrdagi farmonda “ma’naviy-ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining asosiy, ustivor yo‘nalishi, deb hisoblansin” deb belgilanishida ko‘ramiz. Yuqoridagi huquqiy normativ hujjatlar ham mavzu dolzarbligini oshiradi.

Islom Abdugʻaniyevich Karimov 1938-yilning 30-yanvarida Samarqand shahrida oddiy xizmatchi oilasida tavallud topdi. Uning oilasida har kungi ogʻir mehnat yashash uchun pul topishning yagona usuli edi.

Uning bolaligi urush va urushdan keyingi yillarga toʻgʻri keldi. U va uning barcha yaqinlari bir burda nonning haqiqiy bahosini bilganiga qarmasdan, qiyinchilik va yoʻqchilikni boshidan kechirdi, ular minglab vatandoshlarimiz kabi Ikkinchi jahon urushi vaqtida Oʻzbekistonga evakuatsiya qilingan kishilar bilan oʻz uyi va tuz-nonini baham koʻrgandi.

Islom Karimov 1945-yilda Samarqanddagi A.S.Pushkin nomidagi 21-maktabga oʻqishga kirib, uni oltin medal bilan tamomladi. Oʻquvchilik yillari mobaynida koʻp adabiyotlarni, ayniqsa, tarix boʻyicha adabiyotlarni oʻqidi. U aniq fanlarni yoqtirardi, shaxmatga, modellashtirish va stol tennisiga qiziqardi.

1955-yilda Islom Abdugʻaniyevich Oʻrta Osiyo politexnika institutiga oʻqishga kirdi. 1960-yilda uni tamomlab va “muhandis-mexanik” mutaxassisligi boʻyicha diplom olib, “Toshselmash” zavodida oʻz mehnat faoliyatini boshladi va qisqa davr ichida usta yordamchisi, usta va texnolog kabi lavozimlarda ishlashga ulgurdi. Bu zavod qishloq xoʻjaligi texnikasining har xil turlarini, shu jumladan paxta terish mashinalarini ishlab chiqarardi. Ular Oʻzbekiston va boshqa respublikalar dehqonlarining mehnatini yengillashtirardi, shuningdek, boshqa mamlakatlarga eksport qilinardi. Islom Abdugʻaniyevich uchun bularning barchasini vujudida his qilish, ishlab chiqarishda tajriba orttirish, zavod hayotining “murakkab” va “ijobiy” tomonlarini koʻrish muhim edi.

Oʻzining intiluvchanligi, bilimdonligi va tashkiliy fazilatlarini tufayli 1961-yilda u sobiq Sovet Ittifoqining harbiy-sanoat majmuasining yirik korxonalaridan birida - Toshkent aviatsiya zavodida muhandis lavozimiga tayinlandi. Bu yerda u 1966-yilgacha ishlab, yetakchi muhandis-konstruktor lavozimigacha koʻtarildi.

Taqdir unga kulib boqmagandi. U qator qiyinchiliklar va toʻsiqlarni bartaraf etishi lozim edi. Bu esa uning xarakterini toblar, uni yanada mustahkam qilardi. U hayot yoʻlini, avvalambor, oʻz kuchi va bilimlariga tayanib bosib oʻtdi. Maktab yillarida, institutda, ishlab chiqarishdagi mehnat faoliyatida va iqtisodiy taʼlim

olayotganida va dissertatsiyasini himoya qilganida ham u o'z kuchi va bilimiga tayandi.

U ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim oldi.

Aynan shu tarzda 1967-yilda u Toshkent xalq xo'jaligi institutining kechki bo'limini tamomladi.

1973-yilda Toshkent xalq xo'jaligi institutida "O'zbekiston SSR sanoatining tarmoq tuzilishi va uni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

1975-yilda Moskvada nufuzli Xalq xo'jaligi boshqaruvi institutida iqtisodiy-matematik usullar va hisoblash texnikasini qo'llagan holda ishlab chiqarish va rejalashtirishni boshqarish, tashkil qilish zamonaviy usullari sohasi bo'yicha tahsil oldi.

1994-yilda unga iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasi, "makroiqtisodiyot" ixtisosligi bo'yicha professor ilmiy unvoni berildi. U O'zbekiston Fanlar akademiyasining "iqtisodiyot" ixtisosligi bo'yicha haqiqiy a'zosi etib saylandi.

1966-yildan e'tiboran Islom Abdug'aniyevich O'zbekiston Davlat reja qo'mitasiga o'tib, fan bo'limi bosh mutaxassisi lavozomidan Davlat reja qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari lavozimigacha yo'lni bosib o'tdi, jiddiy va o'ziga xos fikrleydigan iste'dodli iqtisodchi obro'siga erishdi.

1983-yilda Moliya vaziri, 1986-yilda Ministrlar Kengashi raisining o'rinbosari - O'zbekiston Davlat reja qo'mitasi raisi bo'ldi.

Iqtisodchi, nazariyachi va amaliyotchi Islom Karimov xo'jalik yuritishning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi butunlay noto'g'riligini ko'rib anglagan. Respublikaning moliyaviy-iqtisodiy rivojlanishi rejalarini shakllantirgan Davlat reja qo'mitasida va Moliya vazirligida xizmat pillapoyalaridan o'tayotib, tahliliy tafakkurga ega bo'lgan holda hech kimga ma'lum bo'lmagan yuzaga kelgan muammolarni ich-ichidan his qilardi.

1986-yilda O'zSSR Davlat reja qo'mitasi raisi bo'lgan Islom Abdug'aniyevich vaziyatni chuqur o'rganganidan keyin respublika iqtisodiy talofat oldida turganini angladi. U vaziyatni tushungan va uni yaxshi tomonga o'zgartishni

xohlagan holda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy qo‘mitasiga “O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishi muammolari va istiqbollari haqida”gi ma’lumotnoma tayyorladi.

U jiddiy va aniq choralarni ko‘rilishiga umid qilgandi. Lekin vujudga kelgan vaziyat rahbariyatning shu darajada g‘azabiga sabab bo‘ldiki, uning Toshkentda bundan buyon qolishga imkoni yo‘q edi. “Nomaqbul” I.A.Karimovdan qutulish istagi shunchalik kuchli ediki, shu tufayli partiya tomonidan viloyat partiya qo‘mitasi birinchi kotibi lavozimiga tayinlashning belgilangan tartibi buzildi. Shunday qilib, u Siyosiy byuro yig‘ilishida Qashqadaryo viloyati partiya qo‘mitasi birinchi kotibi lavozimiga sirdan tayinlandi. Amalda bu uning markazdan uzoqroqqa “surgun qilinishi” edi.

Islom Abdug‘aniyevich juda murakkab viloyatga yuborilgan edi. Butun O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat oson emasdi, Qashqadaryo viloyatida esa vaziyat ancha murakkablashgan edi, chunki avvalgi viloyat rahbariyati xalqning ko‘z o‘ngida o‘zi obro‘cini tushirgan, u yerda partiya rahbarlariga nisbatan ishonch umuman yo‘q edi.

Ehtimol, Islom Abdug‘aniyevichning Qashqadaryoga tayinlanishi uni sindirish uchun kerak bo‘lgandir, biroq bu aksincha uning taqdirida burilish yasadi.

U Qashqadaryoda qariyb uch yil ishladi. Uning bosh maqsadi xalqning ishonchini qozonish, hokimiyatga nisbatan munosabatini o‘zgartirish, viloyatda ishlarning ahvolini yaxshilashdan iborat edi. Va u buni uddaladi. Qariyb 300 km yo‘llar, bozorlar, ijtimoiy-madaniy obyektlar qurildi. Hozirgacha viloyatda odamlar Islom Abdug‘aniyevich Karimov ishlagan kunlarini mamnuniyat bilan eslaydilar.

Islom Karimov qanday lavozimda ishlamasin, u, avvalambor, o‘z Vatanining fuqarosi bo‘lib qoldi, xalqining baxtli va farovon turmush kechirishini xohladi. Xalq ham o‘z hayotidagi ijobiy o‘zgarishlarni his qilib, unga katta ishonch bilan qarabgina qolmay, balki o‘z yo‘lboshchisining haqiqiy fikrdoshi bo‘ldi.

O‘sha yillarning o‘zida uning Vatan oldidagi xizmatlari “Mehnat Qizil Bayroq” (1981) va “Xalqlar do‘stligi” (1988) ordenlari bilan taqdirlangandi.

1989-yil 23-iyun kuni I.A.Karimov O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy qo‘mitasi birinchi kotibi etib saylandi va o‘sha vaqtda fojeali voqealar ro‘y bergan pallada O‘zbekiston boshqaruvini o‘z zimmasiga oldi.

Islom Abdug‘aniyevich yuksak lavozimga kelgan vaziyatni to‘laqonli his qilish uchun uning o‘z so‘zlariga murojaat qilaylik: “Sovet kommunistik tizimi hali-hamon hukmron bo‘lgan 1989-yilni eslaylik. Mayning oxiri – iyun oyining boshida “Farg‘ona voqealari” deb nom olgan mudhish voqealar yuz berdi. Ular butun sobiq Ittifoqni hayratga soldi va nafaqat O‘zbekistondagi, balki butun O‘rta Osiyodagi vaziyatni portlatib yuborishi mumkin edi”.

Aynan o‘sha kunlari respublikadagi vaziyat keskin va nafaqat Farg‘ona vodiysida, balki Toshkent, Sirdaryo viloyatlari va boshqa viloyatlarning ayrim hududlarida yer go‘yoki yonib turgan bir paytda O‘zbekiston shaxsiy jasorati va yuz berayotgan voqealarning mazmun-mohiyatiga davlat qarashi, o‘z xalqi va o‘z mamlakati uchun alohida mas’uliyati bo‘lgan rahbarga ega bo‘ldi.

Islom Karimov bularning negizida kasodga uchragan ma‘muriy buyruqbozlik tizimi, respublikaning milliy, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini inkor etish siyosati, hukmronlik va xalqni kamsitish siyosati yotishini yaxshi anglagan. Markaz tashabbusi bilan tahqirlovchi “paxta ishi”, “o‘zbek ishi” asoratlari xaligacha kishilarning yodida turibdi.

Halokatli vaziyat xom-ashyo yo‘nalishiga moslashgan iqtisodiyotda ham vujudga kelgan edi. Respublikada, ayniqsa, aholisi zich yashagan Farg‘ona vodiysida o‘z ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan norozi bo‘lgan kishilarning sabr kosasi to‘lgan edi.

Endilikda aniqlik bilan aytish mumkin: aynan Islom Karimov millatlararo ziddiyatni to‘xtatdi, fuqarolar urushi olovini o‘chirdi, yuz minglab, balki millionlab kishilarning hayotini saqlab qoldi, respublikamizda ham, ko‘p millatli aholi yashaydigan Markaziy Osiyo mintaqasida ham tinchlik va xotirjamlikni ta‘minladi.

Islom Karimov O‘zbekiston rahbari etib saylanganidan keyingi kunidayoq, ya‘ni 1989-yil 24-iyunda hukumat yig‘ilishida u qat‘iyan: “Biz bundan buyon eskicha yasholmaymiz va bunday yashashga zamonning o‘zi yo‘l qo‘ymaydi”,

degan fikrni ilgari surdi, shuningdek, qadamba-qadam respublikamizni rivojlantirish bo'yicha chuqur o'ylangan o'z dasturini tatbiq etishga kirishdi.

Qisqa muddatlarda tubdan ko'rilgan boshqa choralar bilan birga 1989-yil avgustidayoq tarixiy qaror qabul qilindi - 400 ming gektarga yaqin sug'oriladigan yerlar qariyb 2,5 million oilaga tomorqa sifatida ajratib berildi. Bu, shubhasiz, dolzarb ijtimoiy muammolarni hal qilishda mamlakatimizda tinchlik va barqarorlikni saqlashga xizmat qildi. Agar bitta tarixiy faktni hisobga oladigan bo'lsak, ushbu birinchi navbatdagi o'zgarishning butun miqyosini anglash qiyin emas: sovet hokimiyatining 72 yili mobaynida O'zbekiston qishloq aholisiga atigi 300 ming gektar yer ajratilgan edi, xolos.

1989-yil oktabrida juda uzoq vaqt mobaynida ikkinchi darajali o'rinlarda bo'lgan o'zbek tiliga davlat tili maqomini bergan "Davlat tili to'g'risida"gi qonun qabul qilingani Islom Karimovning dadil siyosiy qadami bo'ldi. Bu o'zbek xalqining milliy ongi yuksalishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, mustaqillikni qo'lga kiritish yo'lida birinchi g'alaba edi.

Ta'kidlash joizki, o'sha vaqtda O'zbekiston SSSR tarkibida bo'lgan, unda juda katta mamlakatni boshqaradigan qattiq ma'muriy-buyruqbozlik tizimi amal qilgan. Garchi mazkur qaror Moskva markazi siyosatiga zid bo'lsa ham, u qabul qilinib tatbiq etildi.

O'zbekiston zimmasiga yuklangan qarorlarga ko'ra barcha ekinlar uchun mo'ljallangan maydonlarning deyarli 80-90 foizi bitta ekin - paxta bilan band qilingan edi. Bu katta ijtimoiy va iqtisodiy muammolarga sabab bo'ldi. Va Islom Karimovgacha kishilar dardiga quloq solib ularning dolzarb muammolarni yechish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan bironta rahbar bo'lmadi.

Islom Karimov shaxsiy jasurlik bobida ham ibrat bo'la olardi. Toshkent viloyati Bo'ka va Parkent tumanlarida avj olgan mitinglarda shaxsiy xavfsizligi haqida bosh qotirmay, u odamlarni so'zi bilan ishontira olganligini eslashning o'zi kifoya qiladi. Yoki 1991-yilning oxirida Namangan viloyati ma'muriyatining ekstremistlar tomonidan to'laligicha nazorat qilingan binosiga himoya qiluvchi xodimlarsiz bir o'zi kirib, har qanday ekstremizmni, shu jumladan diniy

ekstremizmni istisno qiluvchi demokratik va dunyoviy davlat qurish bo'yicha o'z nuqtani nazarini qat'iy va aniq qilib ko'rsatib berdi.

Keltirilgan faktlar o'sha oson bo'lmagan vaqtning haqiqiy holatini ishonchli tarzda aks ettiradi va hech qanday izoh talab qilmaydi.

1990-yil mart oyida M.S.Gorbachev va uning atrofida gilarni hayron qoldirib, O'zbekiston ittifoqdosh respublikalardan birinchi bo'lib Respublika Prezidenti lavozimini joriy qildi. 1990-yil 24-mart kuni Oliy Sovetning sessiyasida I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti etib saylandi.

1990-yil 21-iyunda O'zbekiston SSR Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasida I.A.Karimovning tashabbusi bilan "Mustaqillik to'g'risidagi deklaratsiya" qabul qilindi. Bu mustaqillik uchun kurash borasidagi jasur va hal qiluvchi qadamlardan bo'lib, ular ko'p millionli xalqimiz Moskva markazidan aytilgan kommunistik mafkuraning bosimi ostida boshqa yashashni istamasligining tasdig'i bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, yaratilgan huquqiy asoslarga qaramay, haqiqiy mustaqillikka hali ancha yo'l bosish zarur edi. Bundan tashqari, Moskva rahbariyati loqaydlik kayfiyatida bo'lishiga qaramasdan o'z tasarrufida dunyodagi eng kuchli qatag'on qiluvchi apparatlardan biriga ega edi va istalgan vaqtda "suverenitetlar paradi"ni bekor qilishi mumkin edi.

Aynan shunday vaqtda haqiqiy yetakchi o'z xalqining qo'llab-quvvatlashini va ishonchini his qilib, mamlakat taqdiri uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oldi va qat'iyatlilik, mardlik hamda jasorat namunasini ko'rsatdi.

1991-yil 31-avgustda 12-chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Sovetining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qildi. O'sha kunning o'zida "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida"gi Qonunga imzo chekdi.

1990-yilning avgustidayoq Islom Karimov kompartiyani qayta tashkil qilishga kirishdi, xalqimizning "Yangi uyni qurmay turib, eskisini buzmay" degan dono fikrini qo'llab-quvvatlab, uning mafkurasi va siyosatini amalda tubdan o'zgartirishga harakat qildi. Odamlar va ma'muriyat ulkan zaxiralari bo'lgan

hukmron partiya mutlaqo yangi mafkura va siyosatiga ega xalq demokrtatik partiyasiga o'zgartirildi.

Kommunistik partiyaning obro'si tushib ketgan lahzada o'zlarini muxolif deb e'lon qilgan "Birlik" va "Erk" partiyasi kabi muqobil partiyalar va harakatlar paydo bo'ldi.

Mamlakatdagi ichki siyosiy vaziyat murakkabligiga qaramay, Islom Karimov fikrlar xilma-xilligini va demokratik qadriyatlarga sadoqatni namoyon qilgan holda dadil qadam qo'yishga - ko'p partiyaviylik va muqobillik asosida saylov o'tkazishga qaror qildi.

Saylov 1991-yil 29-dekabrda umumiy, teng va to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazildi. Mutlaq ko'pchilik ovoz bilan ushbu yuksak lavozimga Islom Abdug'aniyevich Karimov saylandi. Unga saylovchilarning 86 foizi ovoz berdi.

Prezident saylovi bilan bir vaqtda O'zbekiston mustaqilligi masalasi bo'yicha referendum o'tkazildi. Ovoz berishga kelgan deyarli barcha fuqarolar mustaqil suveren O'zbekiston uchun fikr bildirdilar.

Saylovdagi g'alabasi bilan Islom Karimov o'zining butun xalq tomonidan qo'llab-quvvatlangan siyosati qonuniyligini tasdiqladi. Prezident lavozimidagi vakolatlari haqqoniyligining bunday tasdig'i, shubhasiz, Islom Karimovga mustaqillikni mustahkamlash hamda orziqib kutilgan siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bo'yicha olib borayotgan ishlar to'g'riligiga ishonchni yanada mustahkamladi.

Tarixan qisqa davrda mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishining asosiy tamoyillari aniq ta'riflangan Asosiy qonun - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ishlab chiqilib qabul qilindi. Islom Abdug'aniyevich uning ustida ishlashda bevosita qatnashib, O'zbekiston Respublikasi Asosiy qonuni ustida ishlashda konstitutsiyaviy tajribasidan foydalanish uchun AQSh, GFR, Yaponiya, Kanada, Fransiya, Portugaliya, Italiya, Shvetsiya, Turkiya, Ispaniya, Hindiston, Pokiston, Misr kabi mamlakatlarning konstitutsiyalarini batafsil o'rganib chiqdi.

Islom Abdugʻaniyevich Asosiy qonunni ishlab chiqish boʻyicha komissiyani boshqarayotib, Oʻzbekiston negizida millati, dinga munosabati, ijtimoiy mavqeyi va siyosiy eʼtiqodidan qatʼi nazar, insonparvarlik hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini taʼminlash tamoyillari yotgan kelajagi buyuk davlatni koʻrgandi.

Uch oy mobaynida Konstitutsiya loyihasi umumxalq muhokamasidan oʻtib, uning doirasida 6 mingdan ziyod taklif kiritildi va komissiya tomonidan koʻrib chiqildi.

1992-yil 8-dekabrda Oʻzbekiston Oliy Kengashi ushbu tarixiy hujjatni qabul qildi.

Yangi Konstitutsiya fuqarolarni va davlatni huquq va majburiyatlar orqali oʻzaro bogʻlab turadi. Shu maʼnoda hujjat Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining barcha prinsipial qoidalarini, yaʼni hayot, shaxs va inson erkinligining daxlsizligi qoidasini oʻzida mujassam etgan.

Yangi jamiyat qurishning asosiy negizi sifatida mulkka nisbatan munosabat prinsipial ahamiyatga ega. Konstitutsiyada xususiy mulk nafaqat uning boshqa shakllari bilan tenghuquqliligi, balki davlat va uning institutlari himoyasi ostida ekanligi eʼlon qilingan. Taʼkidlash joizki, ilgari sobiq SSSR huquqiy tizimida “xususiy mulk” tushunchasini “shaxsiy mulk” tushunchasi bilan almashtirgan holda uni chetlab oʻtishga urinishlar boʻlardi.

Koʻp yillik bir partiyali monopoliyadan keyin davlat hokimiyati qonunchilik, ijroiya, sud hokimiyatiga boʻlinishi tamoyili asosida tashkil qilinishi va tuzilishining huquqiy asoslari yaratildi.

Alohida taʼkidlash lozimki, yangi Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqish jarayonida BMT fundamental hujjatlarining qoidalariga va xalqaro huquq prinsiplariga qatʼiy amal qilindi.

Hatto Yevropa mamlakatlari va AQShning eng talabchan ekspertlari, shuningdek, BMT va Yevropada xavfsizlik va hamkorlik kengashining koʻp sonli ekspertlari Oliy Kengash tomonidan qabul qilingan Qonunni diqqat bilan tahlil qilib, u umumqabul qilingan demokratik normalarga muvofiqligini eʼtirof etdilar.

Shu boisdan ham Islom Abdugʻaniyevich “Konstitutsiya — bizning buyuk yutugʻimiz” deb taʼkidlashiga toʻla haqli edi.

I.A.Karimov muqobillik asosida toʻgʻridan-toʻgʻri, umumiy, yashirin ovoz berish yoʻli bilan bir necha marotaba Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylandi va har safar saylovchilarning mutlaq koʻpchilik ovozini oldi. Bu 2000-yil 9-yanvar, 2007-yil 23-dekabr, 2015-yil 29-mart kunlari kuzatildi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda oʻz harakat dasturlari va elektoratiga ega boʻlgan hamda barcha darajadagi saylovlarda, jumladan mamlakat Prezidenti, Oliy Majlis va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovida ishtirok etadigan toʻrtta siyosiy partiya faoliyat koʻrsatmoqda. Bu Oʻzbekiston Xalq demokratik partiyasi, Oʻzbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati - Oʻzbekiston Liberal-demokratik partiyasi, Oʻzbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidir. Bundan tashqari, mamlakatimizda Oʻzbekiston ekologik harakati faol ish olib bormoqda.

Davlat va iqtisodiyotning totalitar, markazlashtirilgan boshqaruv tizimini yoʻq qilish, mustaqil Oʻzbekistonning yangi siyosiy va davlat tuzilishining asoslarini shakllantirish, hokimiyatning markazdagi va joylardagi konstitutsiyaviy, vakillik organlari yaxlit tizimini yaratish boʻyicha ishlar markazda va joylarda maqsadli, bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Davlat boshligʻi tomonidan qabul qilinayotgan qonunlarni tatbiq etishga, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga qodir, oʻz faoliyatida Oliy Majlis va Prezident oldida masʼul ijroiya hokimiyatining samarali tizimi yaratildi. Viloyat, tuman va shaharlarda hududlar rivoji uchun javob beradigan hokimlar instituti amal qiladi.

Mutlaqo yangi asosda va qisqa muddatlarda huquqni muhofaza qiluvchi organlar va milliy xavfsizlik organlari tizimi shakllandi, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qoʻmondoni - Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdugʻaniyevich Karimov rahbarlik qilgan Qurolli kuchlarimiz tuzildi.

Ichki ishlar vazirligi va davlat xavfsizligi organlari tarkibiy bo'linmalarining hududiy bo'ysunuvi bir respublika doirasida shakllangan edi, Qurolli Kuchlarda esa bu masala oson emasdi.

O'zbekistonning o'z Qurolli Kuchlari bo'lmagan. Uning hududida bir necha respublikalarni qamrab olgan keng Turkiston harbiy okrugining harbiy qismlari joylashgandi.

Ushbu barcha masalalar O'zbekiston atrofida, ayniqsa, Tojikiston va Afg'onistonda yuz berayotgan xatarli jarayonlarni hisobga olgan holda tezkor qaror qabul qilishni talab etdi.

Umuman olganda, tarkibidagi harbiy qismlarning jangovor qobiliyatiga jiddiy zarar yetkazmagan holda o'z Qurolli Kuchlarini yaratish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, huquq-tartibot va milliy xavfsizlik organlari isloh qilindi. Shunday qilib, hozirgi kunda ham mamlakatimiz suvereniteti, konstitutsiyaviy tuzilishi, hududiy yaxlitligi va jamoat tartibining ishonchli himoyasini ta'minlaydigan tizim yaratildi.

I.A.Karimov sud hokimiyati tizimini shakllantirishga va mustahkamlashga, uning demokratlashuvi va liberallashtirishiga, sudning mustaqilligi, xolisligi va odilligini ta'minlashga katta e'tibor qaratdi. Sudlarning ixtisoslashuvi amalga oshirildi, kassatsiya instituti isloh qilindi, ishlarni qayta ko'rib chiqish apellyatsiya tartibi joriy qilindi, sud muhokamasining barcha bosqichlarida tomonlarning tengligi ta'minlandi.

Inson huquqlari bo'yicha samarali faoliyat ko'rsatadigan milliy institutlar tizimini yaratish O'zbekiston demokratik rivojlanishining muhim xususiyatlaridan biri bo'ldi. Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti yaratildi. Ular bir-birini takrorlamasdan, mustaqil va o'z yo'liga ega bo'lib, jamiyatimizda qonun ustuvorligi tamoyiliga rioya qilishga, fuqarolarning huquqlari qonunchilikka muvofiq himoya qilinishiga sharoitlar yaratadi, ularning tatbiq etilishi monitoringini yuritadi.

Birgalikda O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutsional tuzilmasini tashkil qiluvchi fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar, harakatlar, kasaba uyushmalari, jamoat birlashmalari va jamg‘armalar, nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT), mustaqil ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligi kafolatlandi. Ularning nafaqat soni, balki ishining samaradorligi oshib bordi.

O‘zbekiston xalqi hayotida mahalla singari noyob, asrlar davomida vujudga kelgan o‘zini o‘zi boshqarish jamoat instituti ulkan ahamiyatga ega. Istiqlol yillarida mahalla hayoti bilan bog‘liq yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik, mehribonlik, yordamga muhtoj kishilar haqida g‘amxo‘rlik qilish kabi an’analar tiklandi va rivoj topdi.

Bugungi kunda 10 mingga yaqin fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi ilgari mahalliy hokimiyat organlari vakolatidagi 30 dan ziyod vazifani bajarib kelmoqda, xususan joylarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, jamiyatda axloqiy-ma’naviy qadriyatlar qaror topishi, barkamol yosh avlodni tarbiyalash, aholining ish bilan bandligini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va hududlarni obodonlashtirish bo‘yicha ko‘plab masalalarni samarali hal qilmoqda.

Biron-bir davlatni bayroq va gerb singari davlat ramzlarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Va shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, mustaqil O‘zbekistonning ushbu muhim ramzlarining muallifi Islom Abdug‘aniyevich Karimov hisoblanadi. Shuningdek, u “Mustaqillik”, “Amir Temur”, “Buyuk xizmatlari uchun” ordenlari kabi mukofotlarni yaratish bo‘yicha muallif hamdir.

Mustaqillik qo‘lga kiritilishi bilan Prezident I.A.Karimovning faol tashqi siyosiy faoliyati boshlanadi.

—Tilimiz, dinimiz qay ahvolda edi? Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshbandlarning muqaddas xoklariga e’tiborbormidi? Amir Temur, Bobur Mirzo va boshqa ulug‘ bobokalonlarimizning buyuk omlari qaysi tuproqlarda qorishib yotgan edi? (6-βer)

Ma’lumki, o‘zlikni anglash, milliy tafakkur va ongning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Birinchi

Prezidentimiz Islom Abdugʻaniyevich Karimov ona tilining xalq hayotidagi ahamiyati nechogʻlik katta ekani haqida gapirib: “Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili millatning ruhidir”,– deydi. Darhaqiqat, har bir xalq mustaqilligining asosiy belgilaridan biri oʻz ona tili bilan, unga boʻlgan hurmat va eʼtibor bilan belgilanadi. 80-yillarning oxirlarida oʻzbek xalqining mustaqillikka intilishi, avvalo, oʻz xalqiga izzat-hurmat talab qilish bilan boshlandi. 1988-yilning oxirlari 1989-yilning boshlarida davlat tili masalasi matbuotda keskin koʻtarildi. 1989-yilning boshlarida davlatimiz rahbari tashabbusi bilan bu masala boʻyicha ishchi komissiya tuzildi. Ishchi komissiya tomonidan ishlab chiqilgan qonun loyihasi 1989-yil boshlarida matbuotda eʼlon qilindi.

1989-yilgi aholini roʻyxatga olish maʼlumotiga koʻra, aholining toʻrt dan uch qismi oʻzbek boʻlib, respublika aholisi ichida oʻzbek tilini yaxshi biladigan rus, tojik, qozoq, turkman, arman, koreys, va boshqa millat vakillari esa oʻn foiz atrofida edi. Shuning uchun ham oʻzbek tiliga Oʻzbekiston Respublikasining davlat tili maqomining berilishi va tegishli qonun qilinishi asosli edi. Lekin bir yuz oʻttizdan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladigan mamlakatimizda mustaqillik arafasidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat oʻta murakkab edi. Oʻzbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasida qanday qizgʻin, baʼzida keskin va murosasiz bahs hamda tortishuvlvar boʻlib oʻtadi. Til bilan bogʻliq muammolarni roʻkach qilib, gʻarazli maqsadlarni koʻzlayotgan siyosiy guruhlar ham bor edi. “Davlat tili haqida”gi qonunning qabul qilinish jarayonidagi qaltis vaziyat haqida Birinchi Prezidentimiz oʻzining “Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch” asarida: “Mana shunday oʻta qaltis va murakkab vaziyatda agarki ozgina ehtirosga berilsak, hushyorlikni yoʻqotsak bormi, arzimagan uchqundan oʻt chiqib ketishi hech gap emas edi. Markazda va oʻzimizda qulay bahona kutib, payt poylab turgan imperiyaparast kuchlarga aynan shu narsa kerak edi. Ammo biz ular kutgan yoʻldan bormadik. Ogʻir-vazminlik bilan ish tutib, har tomonlama oʻylab, mulohaza qilib barcha siyosiy va ijtimoiy guruhlarining talablarini qondiradigan,

eng muhimi, xalqimiz va Vatanimiz manfaatlariga javob beradigan yagona to‘g‘ri yo‘lni tanlashga erishdik”, – deb yozadi.

Nihoyat 1989-yil 21-oktabrda qariyb bir yarim asr qaramlikdan so‘ng mamlakatimizda o‘zbek tili davlat tili deb e‘lon qilindi. Xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo‘lmish ona tilimiz qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo‘ldi. Birinchi Prezidentimiz “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” asarida buni “Vatanimiz tarixida tom ma‘nodagi buyuk voqea edi”, deb yozadi. Haqiqatan ham, o‘zbek tilining mavqeyi dam ko‘tarilib, dam pasayib turgan bo‘lsa ham, bu til “Davlat tili” maqomini olgan emas edi.

Birinchi Prezidentimiz 24 moddadan iborat mazkur qonunning mohiyati haqida gapirib, davlat tili bilan birga yurtimizdagi barcha millat va elatlarning tillarini rivojlantirish, davlat yo‘li bilan himoya qilish, tili, dini, millatidan qat‘i nazar, har bir fuqaroning o‘z ona tilida ta‘lim, axborot, kerakli ma‘lumot olish kabi huquqlarini kafolatlash masalalari aniq belgilab qo‘yilganligi, bu qonun o‘sha paytda boshqa respublikalarda qabul qilingan tilga oid hujjatlardan o‘zining demokratik mohiyati bilan ajralib turishi, unda davlat idoralarida ishlash, ta‘lim olish, mansab lavozimlari bo‘yicha ko‘tarilish, fuqarolik singari masalalarda odamlarning huquq va erkinliklarini kamsitadigan turli shartlar va “senz”lardan xoli ekani bilan jahon hamjamiyati tomonidan e‘tirof etilgan talab va qoidalarga to‘liq javob berishini ta‘kidlab o‘tadi. Qonun tolerantizm, ya‘ni bag‘rikenglik asosida tuzilganligi uchun ham ko‘pmillatli xalqimiz tomonidan ijobiy kutib olingani bejiz emas. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida: “O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”, deb yozib qo‘yilgan. Bu qoidalar “Davlat tili haqida”gi qonunning 4-moddasida ham o‘z aksini topgan. “Davlat tili haqida”gi qonunning 2-moddasi ham millatlararo totuvlikning ta‘minlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Unda shunday yozilgan: “O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o‘z ona tilini qo‘llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.”

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir”, deb davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan aniq belgilanib, mustahkamlanib qo‘yildi. Shu munosabat bilan Birinchi Prezidentimiz quyidagi fikrarni bildirgan: “Shu tariqa o‘zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog‘i, gerbi, madhiyasi, konstitutsiyasi qatorida turadigan, qonun yo‘li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollardan biriga aylandi”¹.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunni amalga oshirish bo‘yicha 1996-yil 10-sentabrda “Davlat tili haqida”gi qonunni amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi”ni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorni qabul qildi. Davlat dasturida viloyat, shahar, tumanlar hokimlari yoki ularning o‘rinbosarlari raisligida tuziladigan komissiyaga mazkur qonunni ijro etish bo‘yicha javobgarlik yuklanadi. Dasturda har yili 21-oktabrda “Davlat tili haqida”gi qonun qabul qilingan kunni nishonlash qabul qilindi.

«Davlat tili haqida»gi qonunda davlat tilida muomala qilish (3-modda), ta’lim olish (6-modda), uning normalari va qoidalari ustida ishlash, boyitish, rivojlantirish (7-modda), davlat qonunlari va hujjatlarini qabul qilish (8-, 19-moddalar), ish yuritish, statistika va sud, notarial va fuqarolik hujjatlarini tuzish (10-, 11-, 12-, 13-moddalar), rasmiy hujjatlar tayyorlash (14-, 15-moddalar), teleko‘rsatuv, radio, noshirlik, pochta-telegraf muassasalarda (16-,17-,18-moddalar), ko‘rgazmali qurollar (20-modda), mahsulot yorliqlari (21-modda) ijtimoiy ahvol va fuqarolar xohishini hisobga olgan holda davlat tilida olib boriladi.

Qonunning 8-moddasida «Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e’lon qilinadi. Muayyan millat vakillari zich yashaydigan joylarda... hujjatlar davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e’lon qilinadi», deyilgan. 10-moddasida esa: «Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarning ko‘pchiligi o‘zbek tilini

¹Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengimas kuch. – Toshkent, Ma’naviyat nashriyoti, 2008, 85-bet.

bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin», deb yozib qo'yilgan.

Mazkur 8- va 10-moddalarda ko'rsatilgan davlat tili bilan barobar boshqa tillarni ham qo'llash huquqi, ma'lum bir hududda boshqa millat va xalqlar zich yashaydigan, shuningdek ishlovchilarning ko'pchiligi (50 foizdan ortig'i) davlat tilini bilmaydigan bo'lsa, shundagina amalga oshiriladi.

Odatda sudlov ishidagi rasmiy hujjatlar davlat tilida olib boriladi. Ammo 11-moddada davlat tilini «...bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish, ...sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi».

Qonunning 24-moddasida davlat tili va boshqa tillarga noto'g'ri munosabatda bo'lgan shaxslarga tegishli tartibda chora ko'rish masalasi aniq ko'rsatib o'tilgan: «O'zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o'zaro muomala, tarbiya va ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar».

Shu kunga qadar qonunni amalga oshirish yuzasidan ancha ishlar amalga oshirildi. Davlat tilini o'qitish soatlari oshirildi, yangi darslik va qo'llanmalar, o'quv-uslubiy majmualar nashr etildi, korxonalar va tashkilotlarda ish yuritish mazkur qonun asosida amalga oshirila boshlandi, eski totalitar tuzum tomonidan nomlangan milliy g'oyamizga yot bo'lgan geografik obyektlar nomlari o'zgartirildi, termin va atamalarni tanlash va ishlatish tartibga solina boshladi, o'zaro muomala va ta'lim olishda tillarni tanlashdagi erkinlik amalga oshirila boshladi. Korxonalar va tashkilotlarda davlat tilini, shuningdek, lotin yozuvi asosidagi yangi o'zbek alifbosini bepul o'rganish kurslari, to'garaklari tashkil etildi. Xullas, xalqimizning eng buyuk qadriyatlaridan biri, Vatanimizning muqaddas timsoli ona tilimizning mavqeyi jahon miqyosida kundan kunga ortib borayotganiga har birimiz guvohmiz. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy shunday degan: «Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oinayi hayoti tili va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur». Milliy tilimizning yanada ravnaq topishi yo'lida sa'y-harakat

qilish, tilimizning betakror jozibasidan lazzatlanish ishtiyoqi har birimizning faoliyatimizda aks etishi lozim, deb hisoblaymiz.

1.2. Islom Karimov asarlari tilining o‘ziga xos xususiyatlari

Islom Karimovning «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asari tili hozirgi o‘zbek adabiy tilining nodir namunasi. Chunki unda muallifdagi ilmiy-tanqidiy tafakkur bilan iste’dod o‘ziga xos tarzda tutashib ketgan va bu muallif tili *nutqining shiraliligini, jonliligi va jozibadorligini* ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Islom Karimov asarlari bilan qiziqqan olimlar uning ilmiy mushohadasi va ilmiy, badiiy tafakkurining kengligi, falsafiy qarashlarining teranligi kabi qator fazilatlari haqida fikr bildirishgan-u, biroq uning hammaga ham nasib qilavermaydigan darajada o‘xshashi yo‘q bo‘lgan *og‘zaki va yozma nutqining o‘ziga xos xususiyatlari* asosan e’tibordan chetda qolgan yoki kam e’tibor berilgan. Holbuki, ijtimoiy tafakkur shakli til bo‘lsa, individual tafakkur shakli nutqdir. Filologiya fanlari doktori, professor A.Rasulovning fikricha, Islom Karimov asarlaridagi muhim bir xususiyatni ta’kidlash kerak. U kim, nima haqda yozmasin, mavzuning ildizini topishga, mohiyatini yuzaga chiqarishga intildi. Bu esa haqiqatni ro‘y-rost yuzaga chiqarishni taqozo etdi.

Islom Karimov asarlari tilining o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z ketar ekan, *oddiylik, so‘zlashuv va badiiy uslub, ilmiy-ommabopuslub uyg‘unligi, ixchamlik, ifodaviylik, haqqoniylik, obrazlilik* kabi sifatlar bu o‘ziga xoslikni ta’minlovchi uzviy yaxlitlik sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq aytilganlarning o‘zi ham mohir notiq I.Karimov kabi zakiy so‘z san’atkorining individual nutqi haqida aniq tasavvur hosil qilish uchun yetarli, deb o‘ylaymiz.

Siyosatchi, iqtisoldchi olimning asaridagi fikrlaridan bir qanchasi bevosita ona tili va adabiyotimiz ahvoli, uning jonkuyarlari. ravnaqi va bu sohadagi muammolar xususida. Uning ona tilimiz haqidagi qarashlari to‘g‘risida gapirilganda, uni umumiy mazmuni va yo‘nalishlariga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin: *a) ona tilimiz nafosati va boyligi haqidagi fikrlar; b) ona tilimiz fidoyilari va tadqiqotchilari haqidagi fikrlar; d) ona tilimiz tadqiqidagi muammolar haqidagi*

fikrlar; e) ona tilimiz ta'limidagi muammolar haqida; d) so'z qo'llash va joylarni nomlash bilan bog'liq muammolar haqidagi fikrlar.

Islom Karimov asarlarida til va uslub tushunchalari, individual uslubning o'ziga xos xususiyatlarining lisoniy asoslari muammosining o'zbek tilshunosligi va uslubshunosligida o'rganilish holatini ilmiy-tanqidiy tahlil qilish hamda baholash muhim vazifalardandir.

Islom Karimov asarlari tili va uslubini o'rganish asosida istiqloq davrida real voqelikni aks ettirishda muallif mahoratining lisoniy omillarini o'rganish lozim. Islom Karimov asarlari tili va muallif uslubini shakllantirishda ishtirok etuvchi *leksik, fonetik, grammatik vositalar, badiiy tasvir vositalari, paremlar* va boshqalarning lisoniy omillari, voqelashuvi va nutq individualligini ta'minlashdagi o'rnini atroflicha tahlil qilish ehtiyoji bor. Chunki turli xil lisoniy vositalar - *okkazonalizmlar, gapni murakkablashtiruvchi vositalar, muayyan fonetik hamda leksik vositalarning* Islom Karimov nutqidagi stilistik imkoniyatlarini boshqa mualliflar asarlari tili bilan qiyoslab kuzatish orqali ularning uslubni individuallashtirishdagi o'rnini aniqlash mumkin. Matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida yozuvchining tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan emotsional-ekspressiv ifoda semalari qavariq holda reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular muallifning badiiy-estetik, ijtimoiy maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish talab qilinadi.

Ilmiy-ommabop asar tilining lingvistik tahlilida muallifning muayyan til birliklaridan foydalanib, qanday ma'noni yuzaga chiqarishi o'z-o'zidan e'tiborga olinadi. Faqat bunda o'sha til elementlarining kelib chiqish faktiga chuqurroq yondashiladi. Shuning uchun biz Islom Karimovning ilmiy-ommabop uslubini yuzaga chiqaruvchi omillar xususidagi masalaga lingvistik aspektida yondashishni o'rinli deb topdik.

O'zbek tilida so'z yasovchi affikslar anchagina miqdorni tashkil etadi. Adib asarlarida ot so'z turkumiga oid *-chi, -xo'r, -zor, -iston* affikslari, *-xona* affiksoidi, shuningdek, ravish turkumiga oid *-ona* affiksi asosida yasalgan original

okkazionalizmlar uchraydiki, bular matnning jozibadorligi, badiiy bo‘yoqdorligi, hissiy ta’sirchanligini oshirishda muhim uslubiy vosita vazifasini o‘tagan.

Masalan, *-chi* affiksi eng faol ot yasovchi bo‘lib, asosan, turli ma’nolardagi shaxs oti yasaydi. Shulardan biri shaxsning so‘z yasash asosi anglatgan narsa bilan shug‘ullanishini ifodalovchi otlardir: *temirchi, suvchi* kabi. Islom Karimov asarlarida affiksning ana shu xususiyati asosida *ayirmachi, mahalliychi, islohotchi* kabi yangi so‘zlar yasaydiki, bular kontekstdagi ma’noni ta’sirchan, obrazli ifodalash imkonini bergan: *Biroq tarix bitayotganda, mahalliychi bo‘lmasligimiz kerak.*

Matnda ham personajlarni nomlashning turli asoslari mavjud. Ular avtobiografik, tarixiy-madaniy, majoziy va hokazo bo‘lishi mumkin. Kitob matnida *Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino, Mahmud Xo‘jandiy, Ahmad ibn Muhammad Xorazmiy va Ahmad ibn Hamid Naysaburiy Amir Temur, Bobur Mirzo, Alisher Navoiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Alvoni, Munavvarqori, Ishoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Usmon Nosir* kabi antroponimlarning ko‘p qo‘llanganini ko‘rish mumkin.

Islom Karimov asarlaridagi fe‘l vazifaviy shakllarining uslubiy xususiyatlarini o‘rganish ham muhim ahamiyatga ega. Adib o‘z asarlarida sifatdosh, ravishdosh, harakat nomining arxaik va shevaga xos shakllaridan unumli foydalanadi.

Islom Karimov asarlarida sifatdoshlarning hozirda arxaiklashgan va she’riy nutqdagina ishlatiladigan quyidagi shakllari keng qo‘llanilgani kuzatildi:

-mish: Nega deganda, insoniyatning ko‘p ming yil-lik tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo‘ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o‘ziga tobe qilib, bo‘isundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo‘lsa, avvalambor, uni quolsizlantirishga, ya’ni eng buyuk boyligi bo‘lmish milliy qadriyatlarini, tarixi va ma’naviyatidan judo qilishga urinadi.(11-bet)

-jak (-ajak): El-yurtimiz taqdiriga daxldor bo‘lgan tarixiy adolatni tiklash, xalqimiz va millatimizning yaqin o‘tmishidagi yopiq sahifalarini to‘la ochib berish, shu tarixdan saboq chiqarib, bugungi va kelajak hayotimizga ongli

qarashni shakllantirish, begunoh qurbon bo'lgan insonlar xotirasini abadiylashtirish biz uchun ham qarz, ham farz edi.

-uvchi: Chunki xalq — bamisoli ulug' va sharaflil yo'ldan ilgarilab borayotgan ulkan karvon. Uni yo'ldan chalg'itishga urinuvchilar, payt poylab orqasidan hamla qiluvchilar hamisha bo'lgan, bundan keyin ham bo'lishi mumkin. (172-bet)

Asardagi ayrim sitatalarda fe'lining harakat nomi formasi *-moq* affiksi tarixiy prinsip asosida yozilib, *-mak* holatida qo'llanilganligining guvohi bo'lamiz: Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning so'zlari bilan aytganda, «Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdur» (83-bet); Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning:

Oldig'a qo'yganni y**mak** — hayvon ishi,

Og'ziga kelganni de**mak** - nodon ishi, —degan chuqur ma'noli so'zlari ham bu fikrni tasdiqlab beradi. (118-bet)

Hozirgi-kelasi zamon fe'li asosiga *-gan* affiksining qo'shilishidan hosil bo'ladigan hozirgi-kelasi zamon fe'lining atributiv shakli (bor-a-di-gan) o'rnida *-ajak* affiksi bilan yasalgan sifatdosh (bor-a-jak) qo'llangan: El-yurtimiz taqdiriga daxldor bo'lgan tarixiy adolatni tiklash, xalqimiz va millatimizning yaqin o'tmishidagi yopiq sahifalarini to'la ochib berish, shu tarixdan saboq chiqarib, bugungi va kelajak hayotimizga ongli qarashni shakllantirish, begunoh qurbon bo'lgan insonlar xotirasini abadiylashtirish biz uchun ham qarz, ham farz edi. (98-bet)

Islom Karimov asarlarida *-b (-ib)* ravishdoshining uyushib kelgan holatlari ko'p uchraydi: Yosh davlatimiz murakkab sinov kunlarini boshidan kechirayotgan bir paytda, qanchalik qiyin bo'lmasin, biz faqat o'z kuch va imkoniyatlarimizga tayan**ib** va suyan**ib** ish tutishga majbur edik. (104-bet)

Islom Karimov asarlarida kirishlar ham turli nutq vaziyatlarida nutqning emotsional-ekspressivligini oshirish, turli ma'no ottenkalarini ifodalash, obrazlilikni yuzaga chiqarishda muhim uslubiy vosita vazifasini bajargan: *albatta*,

demak, birinchidan, ikkinchidan kabi. Quyida kirish soʻz, kirish birikma va kirish gaplar qatnashgan matnlardan namunalar keltiramiz.

Darhaqiqat, yaqin tarixda xalqimiz oʻz boshidan kechirgan bunday azob-uqubatlarni, taqdirimiz jar yoqasida turgan mashʼum kunlarni unutishga bizning aslo haqqimiz yoʻq. (6-bet)

Masalan, Sharq olamida, jumladan, oʻzimizning Oʻrta Osiyo sharoitida jamoa boʻlib yashash tuygʻusi gʻoyat muhim ahamiyat kasb etadi...(7-bet)

Misol uchun, tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat degan, bir-birini chuqur maʼno-mazmun bilan boyitadigan va toʻldiradigan iboralarni olaylik. (8-bet)

Chindan ham, bu zaminda istiqomat qiladigan odamlarning tarqoq boʻlib yashashga imkoni yoʻq, tabiatning oʻzi, hayotning oʻzi ularni shu ruhda tarbiyalagan. (9-bet)

Bir soʻz bilan aytganda, tarixiy voqelikka mana shunday qarash, jamuljam boʻlib yashash tuygʻusi biz uchun hayot falsafasiga, **yana ham aniqrogʻi**, hayot qoidasiga aylanib ketgan. (10-bet)

Ming afsuski, mana shunday tarixiy haqiqatni anglamaydigan yoki anglashni istamaydigan chet eldagi baʼzi siyosatchi va arboblarning nafaqat siyosat yoki iqtisodiyot, balki maʼnaviyat bobida ham bizga aql oʻrgatishga, azaliy hayot tarzimiz, ruhiy dunyomizga yot boʻlgan qarashlarni majburan joriy etishga urinmoqda. (11-bet)

Binobarin, maʼnaviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid oʻz-oʻzidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sogʻlom avlod kelajagini taʼminlash yoʻlidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin. (12-bet)

Xulosa qilib aytganda, bugungi shiddatli davrda chinakam maʼnaviyatli va maʼrifatli odamgina inson qadrini bilishi, oʻz milliy qadriyatlarini, milliy oʻzligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida oʻziga munosib oʻrin egallashi uchun fidoiylilik bilan kurasha olishi mumkin. (16-bet)

Albatta, «ma'naviyat» tushunchasining ilmiy, falsafiy, adabiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko'plab ta'riflarini keltirish mumkin. (18-bet)

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, keyingi yillarda bu mavzuda olimlarimiz tomonidan tayyorlangan ilmiy risolalar, o'quv qo'llanmalari, lug'atlarda "ma'naviyat" tushunchasi va uning asosiy tamoyillariga o'ziga xos ta'riflar berilayotganini kuzatish mumkin. (19-bet)

Tabiiyki, bunday holatlarni ko'rib-kuzatib, o'zi uchun ezgu niyatlarni yuksak maqsad qilib qo'ygan insonlar qalbida qandaydir ikkilanish va shubha paydo bo'lishi mumkin. (21-bet)

Ularning fikricha, inson o'z boyligini peshona teri to'kib, Oллоh bergan aql-idrok va tafakkurini ishlatib topyaptimi yoki qing'ir-qiyshiq, harom-xarish yo'llar bilan orttiryaptimi — bu go'yoki hech kimni qiziqtirmasligi kerak. (22-bet)

Umuman olganda, insoniyat tarixi ma'naviyat - insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch-qudrat manbasi ekanini, bu hayotda ma'naviyatsiz hech qachon odamiylik va mehr-oqibat, baxt va saodat bo'lmasligini yaqqol tasdiklaydi. (29-bet)

Bir so'z bilan aytganda, xalqimizning yengilmas bahodiri — Alpomish timsolida biz Vatanimizni yomon ko'zlardan, balo-qazolardan asrashga qodir, kerak bo'lsa, bu yo'lda jonini ham fido qilishga tayyor bo'lgan azamat o'g'lonlarimiz — bugungi alpomishlarning ma'naviy qiyofasini ko'ramiz. (34-bet)

Muxtasar qilib aytganda, yangilanish va ezgulik timsoli bo'lgan Navro'z falsafasi xalqimizga mansub odamiylik, mehr-oqibat, muruv-vat va himmat kabi yuksak xususiyatlardan oziqlanib kelgani, ajdodlarimiz asrlar davomida qanday buyuk umuminsoniy g'oyalardan bahramand bo'lib, ma'naviy kamol topganining yana bir tasdig'idir, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

Taassufki, ba'zan islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini bir-biridan farqlay olmaslik yoki g'arazli maqsadda ularni teng qo'yish kabi holatlar ham ko'zga tashlanmoqda. (37-bet)

Manbalarning guvohlik berishicha, Imom Buxoriy vafot etgan yili, ya'ni milodiy 870-yili tariximizdagi yana bir mumtoz siymo — Imom Moturidiy tavallud topgan ekan. (39-bet)

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, zaminimizda yashab o'tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bugun ham jahon ahlini hayratga solayotganini g'urur bilan ta'kidlash lozim. (41-bet)

Bu haqda so'z yuritar ekanmiz, beixtiyor 1996-yili Parijda YUNESKONing o'sha paytdagi Bosh kotibi Federiko Mayor janoblari bilan bo'lgan bir suhbat yodimga tushadi. (46-bet)

Qisqacha aytganda, xonadondagi har bir narsa — daraxt va o'simliklar bo'ladimi, turli o'yinchoqlar, uy hayvonlari bo'ladimi — bularning barchasi bolaning ko'ziga go'yoki olamning beqiyos mo'jizasi bo'lib ko'rinadi va shu tariqa u yorug' dunyoni o'zi uchun kashf qiladi. (54-bet)

Muxtasar qilib aytganda, milliy g'oyamizga qaysi tomondan ta'rif va baho bermaylik, xalqimizni birlashtiradigan bu oliy maqsadlar asrlar davomida uning yuragidan, qalbidan joy olib kelgan orzu-armon va ezgu intilishlar bilan chambarchas bog'liq ekaniga ishonch hosil qilamiz. (77-bet)

Avvalo, respublika Oliy Kengashi qoshida davlat tili bo'yicha taniqli olimlar, ijodkor ziyolilar, jurnalistlar va jamoatchilik vakillaridan iborat maxsus komissiya tashkil qilindi. (84-bet)

Nihoyat, 1989-yilning 19-oktyabr kuni bu o'ta muhim masala Oliy Kengash sessiyasi muhokamasiga qo'yildi. (84-bet)

Holbuki, bundan yigirma yil oldin oddiygina ariza yoki ma'lumotnomani ham o'zbek tilida yozishning imkoni yo'q edi. (86-bet)

Afsuski, hukmron mafkuraning sobiq SSSR hududidagi barcha xalqlar madaniyatini «yagona sovet madaniyati» degan sun'iy g'oya ostida birlashtirishga qaratilgan siyosati tufayli bu ijobiy tajriba nihoyasiga yetmasdan qolib ketdi. (88-bet)

Shubha yo‘q, ko‘ryapmizki, ayon bo‘ladiki shaklidagi ergashgan qo‘shma gapning bosh gapi ko‘rinishidagi gaplar vazifa jihatdan ko‘proq kirishlarga yaqin turishi Islom Karimov asarlarida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Quyida ana shu kabi ergash gap turlariga misollar keltiramiz.

Ta’kidlash joizki, butun hayotda o‘zini to‘liq oqlagan bu modelning negizida avvalambor hayotga realistik qarash, pragmatik yondashuv mujassam, desak, ayni haqiqat bo‘ladi. (103-bet)

Shuni ta’kidlash kerakki, biz bu haqda gapirganda, avvalo ongli yashaydigan, mantiqiy fikrlashga qodir bo‘lgan, o‘z qarashlarining ma’no-mazmunini har tomonlama asoslab, isbotlab bera oladigan odamlarni nazarda tutamiz. (24-bet)

Tariximiz sahifalari shundan dalolat beradiki, yurtimiz rivoji hamma zamonlarda ham bir tekis kechmagan. (50-bet)

Ma’lumki, 1937—1953 yillarda sobiq SSSR hududida mudhish ommaviy siyosiy qatag‘onlar amalga oshirilgan edi. (98-bet)

Shuni mamnuniyat bilan qayd etish lozimki, ezgu fazilat va intilishlar xalqimizning qon-qoni va suyak-suyagiga singib ketgan. (7-bet)

Shuni aytish lozimki, bu tushunchalar kimdir shunchaki o‘ylab topgan shirin kalom, quloqqa xush yoqadigan so‘zlar emas. (8-bet)

Lo‘nda qilib aytadigan bo‘lsak, bunday mafkuraviy xurujlar milliy va diniy tomirlarimizga bolta urishini, ulardan bizni butunlay uzib tashlashdek yovuz maqsadlarni ko‘zlashini, o‘ylaymanki, yurtimizda yashaydigan sog‘lom fikrli har bir odam yaxshi tushunadi. (14-bet)

Takror aytishga to‘g‘ri keladi — ota-onalar, usoz-murabbiylar bu masalada hushyorlikni yo‘qotmasligimiz, yoshlar tarbiyasida aslo beparvo bo‘lmasligimiz zarur. (15-bet)

O‘ylaymanki, tarixda ko‘p-ko‘p sinov va mashaqqatlarni ko‘rgan, aziz farzandining baxti va kelajagini o‘z hayotining ma’no-mazmuni deb biladigan xalqimiz bunday xatarlarning mash‘um oqibatlarini yaxshi anglaydi. (16-bet)

Ishonchim komilki, ana shunday noyob insoniy fazilatlarga, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan xshtq hech kimga hech qachon qaram bo'lmaydi, o'z-inshg ezgu maqsadlariga albatta etadi. (17-bet)

Ishonamanki, har bir avlod mana shu qahramonlik dostonini asrab-avaylab kelgusi avlodlarga etkazadi. (34-bet)

Hammamizga ma'lumki, muqaddas kitoblarimiz va qadriyatlarimiz, buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi bizni doimo halol mehnat bilan yashashga, mardlik, saxovat va kamtarlikka chaqiradi, lekin, shu bilan birga, hayotda bu kabi da'vatlarga amal qilishga intiladigan odam ko'pincha turli qiyinchiliklar, hatto azobu uqubatlarga duch kelishini kuzatish qiyin emas. (21-bet)

Barchamizga yaxshi ma'lumki, din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzotning yuksak ideallari, haq va haqiqat, insof va adolat to'g'risidagi orzu-armonlarini o'zida mujassam etgan, ularni barqaror qoidalar shaklida mustahkamlab kelayotgan g'oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir. (36-bet)

O'z-o'zidan ravshanki, yuqorida zikr etilganidek, bola tarbiyasida sog'lom nasl masalasi ham muhim rol o'ynashini inkor etib bo'lmaydi. Aqli raso har qaysi inson yaxshi anglaydiki, bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. (56-bet)

Shuni unutmashimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. (61-bet)

Eng muhimi shundaki, «portlash effekti»ning haqiqiy mohiyati va ahamiyati vaqt o'tishi bilan, biz tarbiya qilayotgan sog'lom va barkamol avlodning safimizga tobora ildam kirib borishi bilan yanada yaqqolroq seziladi. (64-bet)

Eng yomoni, bunday xurujlarning pirovard oqibati odamni o'zi tug'ilib o'sgan yurti va xalqidan tonishga, vatanparvarlik tuyg'ularidan mahrum etishga va hamma narsaga loqayd bo'lgan shaxsga aylantirishga qaratilganida namoyon bo'lmoqda. (13-bet)

Matnning lisoniy xususiyatlari tahlil qilinganda, morfologik birliklarning ishlatilishi bilan bog'liq holatlar haqida fikr yuritish mumkin. Morfologik

birliklarning estetik vazifasi deganda, maxsus soʻz formalari vositasida, shuningdek, maʼlum bir grammatik maʼno va funksiyaga ega boʻlgan qoʻllash orqali ekspressivlik-emotsional ifodalanishi tushuniladi.¹

Grammatik shakl soʻzning u yoki bu grammatik vosita yordamida oʻzgarishidir. Turli grammatik shakllar hosil qilish soʻzning paradigmatic oʻzgarishi boʻlib, u leksik maʼno hamda kategorial grammatik maʼnolar birligiga asoslanadi. Soʻzning grammatik shakllari (turlanish, tuslanish tartibi, oʻzgarishlar yigʻindisi) sanaladi. Maʼlumki, mustaqil soʻzlar obyektiv borliqdagi maʼlum bir predmet, belgi, harakat kabilarni anglatadi. Bu soʻzning leksik maʼnosi hisoblanadi. Grammatik maʼno soʻzning leksik maʼnosini oʻzgartirmaydi, leksik maʼnoga qoʻshimcha tarzda maʼno orttirish, soʻzni-soʻzga, gapni-gapga bogʻlash, birlashtirish vazifasini bajaradi hamda maxsus vositalar, masalan qoʻshimchalar, orqali ifodalanadi. Grammatik maʼno va grammatik shakl (soʻz shakli) deganda, mustaqil soʻzlarga nazarda tutiladi.

Grammatik maʼno quyidagicha ifodalanadi:

- 1) oʻzakka (negiz) grammatik maʼno bildiruvchi qoʻshimcha qoʻshish bilan: kitob-im, kitob-ni, oʻqi-di-ng, yaxshi-roq, gul-ga, gul-zor;
- 2) yordamchi soʻzlar bilan: siz uchun, radio orqali, keldi-yu gapirmadi.
- 3) soʻzlarni takrorlash yoʻli bilan: burro-burro gapirdi, katta-katta qurilishlar.

Fonetik vositalardan badiiy matnda koʻpchilik subyektiv modallikni roʻyobga chiqarish maqsadida foydalaniladi, bunda ayniqsa unli tovushlarning choʻzilishi, undosh tovushlarning geminatsiyasi, urgʻu oʻrnining koʻchirilishi kabilar koʻproq qoʻllanadi.

Umuman, Islom Karimov asarlarida tilning ichki imkoniyatlaridan – leksik birliklar, iboralar, kirishlar, maqol va matallardan, morfologik shakllardan, maʼno koʻchirish usullari, turli oʻxshatishlardan foydalanilgan. Muallif tomonidan qoʻllangan oʻziga xos til birliklari uning publitsistik maqsadi va estetik niyatiga mahorat bilan boʻysundirilgan.

¹ Abdullayev A. "Oʻzbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi". T.: "Fan". 1983, -B. 41.

1.3.“Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida til siyosati masalalari

Shaxs ma’naviy olami, jumladan tili uchun kurash, millatning o‘zligi, milliy qadriyatlarini saqlab qolish, ularni yot unsurlar, g‘oyalardan himoya qilish kunning asosiy maqsadlaridan biriga aylandi. Shu munosabat bilan mamlakatimizning Birinchi Prezidenti o‘zining “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” nomli asarida shunday deb yozadi: “Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat’iyat va mas’uliyatimizni yo‘qotsak, bu o‘ta muhim ishni o‘z holiga, o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yadigan bo‘lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo‘g‘rilgan va ulardan oziqlangan ma’naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o‘zimiz intilgan umumba-shariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin.”

Yuzaga kelgan vaziyatda ma’naviyatning o‘ziga xos qonuniyatlarini o‘rganish, yoshlar ma’naviy qiyofasining shakllanishida ona tilimiz bilan bog‘liq masalalarni tadqiq qilish alohida ahamiyatga ega. Bu borada “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asari qimmatli manba vazifasini o‘taydi. Binobarin, mazkur asardagi til siyosati masalalarini tahlil qilish, uning millat ma’naviy qiyofasining shakllanishiga ta’sirini o‘rganish dolzarb ahamiyatga molik masaladir.

Bugungi kunda “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida til haqida ilgari surilgan konseptual g‘oyalarni yanada teranroq anglab yetish uchun, fikrimizcha, quyidalarga alohida e’tibor bermoq darkor:

- tilning inson hayoti, jamiyat taraqqiyotidagi roli haqidagi Birinchi Prezidentimiz mulohazalarini umumlashtirish.
- asar asosida mustaqillik yillaridagi tilimizning rivojlanish jarayonini tahlil qilish.
- asarning yuqoridagi metodologik pozitsiyadan mushohada qilinishi unda til bo‘yicha ilgari surilgan g‘oyalarni yanada mufassalroq ilg‘ab olish imkonini beradi.

“Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida tilimiz rivojlanishi yo‘lidagi g‘oyalar ilgari surilgan. Islom Karimovning ona tilimizga munosabati, mehr-muhabbati ham o‘z ifodasini topgan. Muallif xalqning boy ma’naviy meros va qadriyatlarga egaligini tildagi so‘zlarni misol keltirish orqali izohlaydi:

«...xalqimizning turmush va tafakkur tarziga nazar tashlaydigan bo'lsak, boshqalarga hech o'xshamaydigan, ming yillar davomida shakllangan, nafaqat o'zaro muomala, balki hayotimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo'ladigan bir qator o'ziga xos xususiyatlarni ko'ramiz. Misol uchun, tilimizdagi *mehr-oqibat*, *mehr-muhabbat*, *mehr-shafqat*, *qadr-qimmat* degan, bir-birini chuqur ma'no-mazmun bilan boyitadigan va to'ldiradigan iboralarni olaylik. Qanchalik g'alati tuyulmasin, bu iboralarni boshqa tillarga aynan tarjima qilishning o'zi mushkul bir muammo».¹

Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy tafakkur va ongning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ona tilining xalq hayotidagi ahamiyati nechog'lik katta ekani haqida gapirib: "Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili millatning ruhidir",– degan edi. Darhaqiqat, har bir xalq mustaqilligining asosiy belgilaridan biri o'z ona tili bilan, unga bo'lgan hurmat va e'tibor bilan belgilanadi. 80-yillarning oxirlarida o'zbek xalqining mustaqillikka intilishi, avvalo, o'z xalqiga izzat-hurmat talab qilish bilan boshlandi. 1988-yilning oxirlari 1989-yilning boshlarida davlat tili masalasi matbuotda keskin ko'tarildi. 1989-yilning boshlarida Birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan bu masala bo'yicha ishchi komissiya tuziladi. Ishchi komissiya tomonidan ishlab chiqilgan qonun loyihasi 1989-yil boshlarida matbuotda e'lon qilinadi.

1989-yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotiga ko'ra, aholining to'rttdan uch qismi o'zbek bo'lib, respublika aholisi ichida o'zbek tilini yaxshi biladigan rus, tojik, qozoq, turkman, arman, koreys, va boshqa millat vakillari esa o'n foiz atrofida edi. Shuning uchun ham o'zbek tiliga O'zbekiston Respublikasining davlat tili maqomining berilishi va tegishli qonun qilinishi asosli edi. Lekin bir yuz o'ttizdan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladigan mamlakatimizda mustaqillik arafasidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat o'ta murakkab edi. O'zbek tiliga

¹Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, Ma'naviyat nashriyoti, 2008. - B.8.

davlat tili maqomini berish masalasida qanday qizg'in, ba'zida keskin va murosasiz bahs hamda tortishuvlvar bo'lib o'tadi. Til bilan bog'liq muammolarni ro'kach qilib, g'arazli maqsadlarni ko'zlayotgan siyosiy guruhlar ham bor edi. "Davlat tili haqida"gi qonunning qabul qilinish jarayonidagi qaltis vaziyat haqida Birinchi Prezidentimiz o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida: "Mana shunday o'ta qaltis va murakkab vaziyatda agarki ozgina ehtirosga berilsak, hushyorlikni yo'qotsak bormi, arzimagan uchqundan o't chiqib ketishi hech gap emas edi. Markazda va o'zimizda qulay bahona kutib, payt poylab turgan imperiyaparast kuchlarga aynan shu narsa kerak edi. Ammo biz ular kutgan yo'ldan bormadik. Og'ir-vazminlik bilan ish tutib, har tomonlama o'ylab, mulohaza qilib barcha siyosiy va ijtimoiy guruhlarning talablarini qondiradigan, eng muhimi, xalqimiz va Vatanimiz manfaatlariga javob beradigan yagona to'g'ri yo'lni tanlashga erishdik",– deb yozadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: "Mustaqillik yillarida biz erishgan eng katta va bebaho boylik – ko'p millatli xalqimizning har qanday qiyinchilik va sinovlarni yengishga qodirligi, uning zamonaviy dunyoqarashi, siyosiy ongi va ijtimoiy faolligining yuksalib borayotgani, atrofimizdagi voqealarga daxldorlik tuyg'usi, jamiyatimizdagi o'zaro mehr-oqibat va hamjihatlik muhitidir",¹ deganida ham ko'p millatli xalqimizning tinch va ahil yashayotganiga asosiy e'tiborini qaratadi.

Nihoyat 1989-yil 21-oktabrda qariyb bir yarim asr qaramlikdan so'ng mamlakatimizda o'zbek tili davlat tili deb e'lon qilindi. Xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo'lmish ona tilimiz qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo'ldi. Birinchi Prezidentimiz "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida buni "Vatanimiz tarixida tom ma'nodagi buyuk voqea edi", deb yozadi. Haqiqatan ham, o'zbek tilining mavqeyi dam ko'tarilib, dam pasayib turgan bo'lsa ham, bu til "Davlat tili" maqomini olgan emas edi.

¹ Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз.– Тошкент: "Ўзбекистон" НМИУ, 2017. – Б.138

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir”, deb davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan aniq belgilanib, mustahkamlanib qo‘yildi. Shu munosabat bilan Birinchi Prezidentimiz o‘z asarida quyidagi fikrarni bildirgan: “Shu tariqa o‘zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog‘i, gerbi, madhiyasi, konstitutsiyasi qatorida turadigan, qonun yo‘li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollardan biriga aylandi”.¹

Shu kunga qadar qonunni amalga oshirish yuzasidan ancha ishlar bajarildi. Davlat tilini o‘qitish soatlari oshirildi, yangi darslik va qo‘llanmalar, o‘quv-uslubiy majmualar nashr etildi, korxonalar va tashkilotlarda ish yuritish mazkur qonun asosida amalga oshirila boshlandi, eski totalitar tuzum tomonidan nomlangan milliy g‘oyamizga yot bo‘lgan geografik obyektlar nomlari o‘zgartirildi, termin va atamalarni tanlash va ishlatish tartibga solina boshladi, o‘zaro muomala va ta’lim olishda tillarni tanlashdagi erkinlik amalga oshirila boshladi. Korxonalar va tashkilotlarda davlat tilini, shuningdek, lotin yozuvi asosidagi yangi o‘zbek alifbosini bepul o‘rganish kurslari, to‘garaklari tashkil etildi. Islom Karimov xalqimizning eng buyuk qadriyatlaridan biri, Vatanimizning muqaddas timsoli ona tilimizning mavqeyi jahon miqyosida kundan kunga ortib borayotganini ta’kidlaydi va tilning ahamiyati nechog‘li katta ekanini buyuk ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning quyidagi fikrini keltirish orqali o‘z fikrini dalillaydi: “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurg‘on oinayi hayoti tili va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”.²

Asarda muallif «ma’naviyat» tushunchasining ilmiy, falsafiy, adabiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko‘plab ta’riflarini keltiradi. Uning fikricha, o‘zida juda chuqur va keng qamrovli ma’no-mazmunni mujassam etgan «ma’naviyat» tushunchasiga har qaysi ma’rifatli inson o‘zining falsafiy yondashuvi, siyosiy qarashlari va e’tiqodi, ongu tafakkuridan kelib chiqqan holda turlicha ta’rif va

¹Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, Ma’naviyat nashriyoti, 2008.- B.85.

² Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, Ma’naviyat nashriyoti, 2008. - B. 83.

tavsiflar berishi tabiiy. Shuning uchun ham bu masala bo'yicha ilmiy adabiyotlarda, kundalik matbuotda bir-biridan farq qiladigan fikr-mulohazalarni uchratganda bundan taajjublanmasdan, ularni har qaysi muallifning o'ziga xos dunyoqarashi, mushohada tarzi ifodasi sifatida qabul qilish o'rinlidir. I.Karimov keyingi yillarda bu mavzuda olimlarimiz tomonidan tayyorlangan ilmiy risolalar, o'quv qo'llanmalari, lug'atlarda «ma'naviyat» tushunchasi va uning asosiy tamoyillariga o'ziga xos ta'riflar berilayotganini o'rganib chiqadi va shunday yozadi: “Men bu boradagi fikrlarni inkor etmagan holda, «ma'naviyat» tushunchasining mazmuni faqat «ma'ni», «ma'no» degan so'zlar doirasida chegaralanib qolmaydi, deb o'ylayman¹. Nega deganda, insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog'langan bu tushuncha har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq hayotida hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydigan alohida o'rin tutadi”.

Shu fikrni mantiqiy davom ettirib, ma'naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir, desak, menimcha, tariximiz va bugungi hayotimizda har tomonlama o'z tasdig'ini topib borayotgan haqiqatni yaqqol ifoda etgan bo'lamiz. Mening nazarimda, «ma'naviyat» tushunchasi jamiyat hayotidagi g'oyaviy, mafkuraviy, ma'rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o'zida to'la mujassam etadi. Shuning uchun ham bu mavzuda fikr yuritganda, mazkur qarashlarning barchasini umumlashtirib, keng ma'nodagi «ma'naviyat» tushunchasi orqali ifoda etish mumkin.

Har qanday ijtimoiy hodisa singari milliy qadriyatlarning ham o'ziga xos rivojlanish qonuniyati bor. Bu haqiqatni unutish, milliy qadriyatlarni biryoqlama, sun'iy ravishda ulug'lash va ideallashtirishga urinish, ulardan siyosiy maqsadlarda foydalanish salbiy oqibatlarga olib kelishi hayotda ko'p bora o'z isbotini topgan. Ayniqsa, O'zbekiston kabi ko'pmillatli, ko'pkonfessiyali mamlakatda bunday

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, Ma'naviyat nashriyoti, 2008. - B.19

harakatlar oxir-oqibatda millatlararo ziddiyat, millatchilik, milliy va diniy betoqatlik kabi noxush holatlarga olib kelishi mumkin. Biz xalqimizning aql-idroki, mustahkam irodasi, bag'rikengligi va insonparvarligiga tayangan holda, bu borada amalga oshirgan bir qator ishlar bugungi kunda o'zining ijobiy samarasini bermoqda¹.

I.Karimov ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarurligi haqida shunday deydi: "...fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi o'ta muhim sohalarda ona tilimizning qo'llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug'atlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so'z bilan aytganda, o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o'zlikni, Vatan tuyg'usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz. Ma'lumki, o'zbek tili asrlar davomida arab yozuvi asosida rivojlanib kelgan. Ayni paytda buyuk ajdodlarimiz, tilimizning o'ziga xos grammatik xususiyatlarini hisobga olgan holda, uning ulkan imkoniyatlariga mos yozuv tizimini yaratish haqida doimo bosh qotirib kelganlari ham tarixiy manbalardan yaxshi ayon, deb o'ylayman".

Ma'lumki, Birinchi Prezident tashabbusi bilan 1993-yil 2-sentabrda yurtimizda «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonun qabul qilindi.

O'tgan davr mobaynida ana shu qonun ijrosini ta'minlash bo'yicha juda katta ishlar amalga oshirilganini ta'kidlash lozim. Avvalo, o'zbek tilining lotin yozuvi asosidagi imlo qoidalari ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etildi. Bugungi kunda mamlakatimizda ta'limning barcha bosqichlarida ana shu alifbo asosida bilim berilmoqda. Lotin yozuvida chop etilayotgan kitob va darsliklar, o'quv qo'llanmalari, gazeta-jurnallar, reklama va e'lonlar, davlat hujjatlari hozirgi vaqtda bu imlo madaniy hayotimizning ajralmas qismiga aylanib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu masalaga mantiqiy ko'z bilan qaraydigan, eng muhimi,

¹ Ko'rsatilgan manba. - B.82.

xalqimizning ko‘pmillatli ekanini inobatga oladigan bo‘lsak, ayrim milliy guruhlar kirill yozuvini ishlatishini nazarda tutib, yuqorida tilga olingan qonunda bu imlodan foydalanish uchun ham imkoniyat yaratish ko‘zda tutilgan.

Prezidentimiz I.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida ham geografik obyektlarning nomlari milliy mafkuramizga mos bo‘lishi lozimligini ta’kidlab o‘tadi, o‘z fikrini bir qancha misollar bilan dalillaydi: “Bugungi kunda yoshlarimiz yurtimizning ko‘cha va xiyobonlari, metro va avtobus bekatlari, katta-katta maydonlar, binolarni bezab turgan o‘zbekcha nomlar, shior va lavhalarni ko‘rib, bularning barchasini odatiy bir hol sifatida qabul qiladi. Vaholanki, yaqin tariximizda bu manzara butunlay boshqacha ko‘rinishga ega edi. Birgina Toshkent shahridagi ko‘chalarning nomlarini o‘qib, beixtiyor qaysi mamlakatda yurganingizni bilmay qolar edingiz: *Lenin, Marks, Engels, Lunacharskiy, Kirov, Voroshilov, Lopatin* va hokazo. Shunisi ajablanarliki, bolsheviklar partiyasining dohiylari bo‘lmish bu insonlarning birortasi ham umrida yurtimizga qadam qo‘ymagan, bizning tariximiz va qadriyatlarimizga mutlaqo aloqasi bo‘lmagan kimsalar edi. Yoki shahardagi aksariyat turarjoy mavzolari «S-1», «S-2», «S-15» degan, odamda hech qanday his-tuyg‘u, xotira uyg‘otmaydigan mavhum nomlar bilan atab kelinganini eslaylik».

Bularning barchasi zamirida sovet mafkurasiga xos bo‘lgan, odamzotni tarixiy xotira, Vatan tuyg‘usidan judo qilishga qaratilgan g‘arazli intilishlar mujassam ekanini anglash, tushunish qiyin emas. Holbuki, ajdodlarimiz o‘zlari yashaydigan mahalla, shahar va qishloqlar, bog‘-xiyobonlarga nom tanlashga juda katta e’tibor bergan. Misol uchun, Toshkentning o‘n ikki darvozasiga berilgan chuqur ma’noli, go‘zal nomlarni olaylik. *Samarqand, Beshyog‘och, Ko‘kcha, Chig‘atoy, Sag‘bon, Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Kamolon, Qo‘ymas, Qo‘qon, Qashqar darvoza* degan nomlar avvalambor o‘zining aniq tarixiy-jug‘rofiy ma’nosi bilan ajralib turadi. Qadimiy nomlarda ota-bobolarimizning hayot va tafakkur tarzi yaqqol o‘z aksini topgan”¹. Masalan, Toshkentning Eski shahar

¹ Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.– B.89.

qismidagi *Pichoqchilik, Charxchilik, Ko'nychilik, Degrezlik, Taqachi, Egarchi, O'qchi, Zargarlik, Parchabof* singari mahalla nomlari bu erda hunarmandchilik naqadar rivojlanganidan, xalqimizning azaldan o'troq hayot kechirib, yuksak madaniy turmush darajasiga ega bo'lganidan dalolat beradi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, keyingi yillarda poytaxtimizda milliy tariximizga begona bo'lgan, yuqorida zikr etilgan yasama, siyosiy nomlar o'rniga *Mirobod, Rakat, Mingo'rik, Darxonariq, Shayxontohur, Yakkasaroy, Zarqaynar, Uchtepa* kabi asl nomlarning tiklanganini, eng muhimi, bunday ishlar mamlakatimizning barcha mintaqa va hududlari miqyosida amalga oshirilayotganini ta'kidlash joiz.

Milliy tilimizning yanada ravnaq topishi yo'lida sa'y-harakat qilish, tilimizning betakror jozibasidan lazzatlanish ishtiyoqi Islom Karimovning bu yo'lida qanchalik buyuk ishlarni qilishga undagani kabi, har birimizning faoliyatimizda aks etishi lozim, deb hisoblaymiz.

I Bob bo'yicha xulosa

1. Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy tafakkur va ongning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ona tilining xalq hayotidagi ahamiyati nechog'lik katta ekani haqida gapirib: "Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili millatning ruhidir",–deydi. Darhaqiqat, har bir xalq mustaqilligining asosiy belgilaridan biri o'z ona tili bilan, unga bo'lgan hurmat va e'tibor bilan belgilanadi. 80-yillarning oxirlarida o'zbek xalqining mustaqillikka intilishi, avvalo, o'z xalqiga izzat-hurmat talab qilish bilan boshlandi.

2. Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asari tili hozirgi o'zbek adabiy tilining nodir namunasi. Chunki unda muallifdagi ilmiy-tanqidiy tafakkur bilan iste'dod o'ziga xos tarzda tutashib ketgan va bu muallif tili *nutqining shiraliligini, jonliligi va jozibadorligini* ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

3. Islom Karimov asarlari tilining o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z ketar ekan, *oddiylik, so'zlashuv va badiiy uslub, ilmiy-ommabopuslub uyg'unligi, ixchamlilik, ifodaviylik, haqqoniylik, obrazlilik* kabi sifatlar bu o'ziga xoslikni ta'minlovchi uzviy yaxlitlik sifatida namoyon bo'ladi. Biroq aytilganlarning o'zi ham mohir notiq I.Karimov kabi zakiy so'z san'atkorining individual nutqi haqida aniq tasavvur hosil qilish uchun yetarlidir.

4. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida tilimiz rivojlanishi yo'lidagi g'oyalar ilgari surilgan. Islom Karimovning ona tilimizga munosabati, mehr-muhabbati ham o'z ifodasini topgan. Muallif xalqning boy ma'naviy meros va qadriyatlarga egaligini tildagi so'zlarni misol keltirish orqali izohlaydi.

II BOB. “YUKSAK MA’NAVIYAT-YENGILMAS KUCH” ASARI

TILINING LEKSIK XUSUSIYATLARI

2.1. Asar tilining leksik tarkibi

Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asaridagi o‘ziga xos teranligi, mantiqiyliigi va ilmiy asosliligi bilan ajralib turadigan ona tilimiz nafosati haqidagi fikrlari leksikasini tadqiq qilish lozim. Bunga doir o‘z mulohazalarini olim quyidagicha ifodalaydi: «Mana, birgina «qaramoq» so‘zini olib ko‘raylik, o‘nlab unga yaqin, ma’nodosh so‘zlar bor – ular, asosan, bir xil ma’noni anglatgan holda, har gal shu ma’noning biror jihatini, biror qatlamini, biror holatini ta’kidlab ko‘rsatadi: *tikilmoq, razm solmoq, baqraymoq, alanglamoq, o‘qraymoq, mo‘ltiramoq, qaramoq* va yana men bilmagan yoki hozir esimga kelmagan o‘nlab so‘zlar... Bularning har qaysisidan o‘z o‘rnida bilib foydalansangiz, shu tuzgan jumla shunchaki biror ma’noni ifodalab qo‘ya qolmaydi, balki kamalak ranglari bilan tovlanadi, go‘zalligi bilan sizni mast qiladi. Axir, shunday go‘zalliklardan huzurlanmay, faxrlanmay bo‘ladimi?».

Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” asarida bir qancha tushunchalarni sharhlash, ularning mohiyatini uqtirishga urinadi: ...bizning ulug‘ ajdodlarimiz o‘z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslash o‘rinli, deb bilaman. Ota-bobolarimizning ongu tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan *or-nomus, uyat va andisha, sharm-u hayo, ibo* va *iffat* kabi yuksak axloqiy tuyg‘u va tushunchalar bu kodeksning asosiy ma’no-mazmunini tashkil etadi, desak, o‘ylaymanki, xato qilmagan bo‘lamiz. (118-bet) Shu nuqtayi nazardan qaraganda, *uyat-o‘limdan qattiq*, degan gaplar xalqimiz tilida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmagan, aksincha, bunday iboralar el-yurtimizga mansub ezgu va go‘zal axloqiy qadriyatlarining asl mazmunini ifoda etadi. Darhaqiqat, uyat va or-nomusini yo‘qotgan odam, Ahmad Yassaviy bobomiz aytganidek, xuddiki hayvon jinsiga aylanib qoladi. (119-bet)

Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” asarida tushunchalarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish usulidan ham unumli foydalangan: Hozirgi vaqtda ko‘z o‘ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o‘zgarishlar ro‘y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, *fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish* har qachongidan ko‘ra muhim ahamiyat kasb etmoqda. (119-bet)

So‘z ruhini o‘z ruhiyati bilan idrok ila uyg‘unlashtira oladigan buyuk san’atkorlar kabi tilga nisbatan ayrim e’tiborsizliklarga befarqlik I.Karimovga yot. Aforizm kabi yangraydigan quyidagi jumlar fikrimiz dalilidir: Tarix haqiqati shuni ko‘rsatadiki, tomirida milliy g‘urur, Vatan ishq jo‘sh urgan odamgina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi. Biz shunday ma’naviy muhit yaratishimiz kerakki, yurtimizning har bir burchagida, barcha shahar va qishloqlarimiz qiyofasida Vatandan faxrlanish hissi ko‘zimizni, qalbimizni yashnatib tursin.

Bu haqda gapirar ekanmiz, ayni vaqtda muhim bir masalaga alohida e’tibor qaratishimiz lozim. Yurtimizda yashayotgan har qaysi inson o‘zini eng avvalo O‘zbekiston fuqarosi deb, shundan keyingina muayyan bir xudud vakili, aytaylik, xorazmlik, samarqandlik yoki Farg‘ona vodiysi farzandi deb his qilishi lozim. (90-bet) Bu ta’kidlar ona tiliga e’tiqod qo‘ygan sohibi tilning betakror fikrlaridir.

Tilshunoslikka doir o‘tkir muammolar ham ijodkor nigohidan chetda qolmaydi. Islom Karimov atamashunoslik, leksikologiya, lug‘atchilik sohasidagi yechimini kutayotgan masalalarni qayta-qayta ta’kidlaydi. Masalan, olimning atamashunoslik haqidagi fikrlari ma’rifiy ahamiyatga ega bo‘lib, ular bugungi kunda tilshunoslikda ko‘rilayotgan ayrim «dolzarb» muammolarga qaraganda o‘tkirligi va jonliligi bilan xarakterlanadi: ...Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi o‘ta muhim sohalarda ona tilimizning qo‘llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug‘atlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so‘z bilan aytganda, o‘zbek

tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish milliy o'zlikni, Vatan tuyg'usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz.

Islom Karimov ona tilimiz tadqiqotchilari, targ'ibotchilari, jonkuyarlari haqida ham qimmatli mulohazalarini bildirgan.

Til siyosatida mavjud so'zlarni yangisiga almashtirish masalasi har doim bo'lgan va unda zo'rma-zo'rakilik hech qachon o'zini oqlamagan, adabiy tilda gapirish masalasiga ham e'tibor qaratgan. Bu masalada o'zini shu jamiyatning ongli va mas'ul vakili sifatida his etgan I.Karimov o'z nuqtayi nazarini dadillik bilan bildiradi: Ayni vaqtda jamiyatimizda til madaniyatini oshirish borasida hali ko'p ish qilishimiz lozimligini ham unutmasligimiz zarur. Ayniqsa, ba'zan rasmiy muloqotlarda ham adabiy til qoidalariga rioya qilmaslik, faqat ma'lum bir hudud doirasida ishlatiladigan sheva elementlarini qo'shib gapirish holatlari uchrab turishi bu masalalarning hali-hanuz dolzarb bo'lib qola yotganini ko'rsatadi. Bu haqsa so'z yuritganda, bobomiz Alisher Navoiyning «Tilga e'tiborsiz - elga e'tiborsiz» degan so'zlarida naqadar chuqur hayotiy haqiqat mujassam ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Islom Karimovning iqtisod va siyosat sohasidagi mahorati qanchalik yuksak bo'lsa, tilshunoslik borasidagi qarashlari, so'z qo'llash mahorati ham shunchalik ma'nodor va ibratlidir. Bu qarashlarida muallif ijtimoiy hayot, jamiyat va tabiat hamda inson shaxsi munosabatlaridan baxs etuvchi ilmiy-ommabop ijodning taniqli vakili sifatida namoyon bo'ladi. Zero, asar tilida falsafiy-intelektual va badiiy-estetik tafakkur sintezi hosilasi ekanligi yorqin aks etgan. Bu o'rinda bir mulohaza joiz ko'rinadi, ya'ni ilmiy-ommabop uslubning muayyan ijod tiliga mansubligi va obrazlilik darajasiga oid fikrlar turli-tumandir.

Bizningcha, «janr» atamasi Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asari ma'no va shakl doirasini biroz toraytiradi, chunki bu atama odatda shakliy asarning ko'rinishlariga nisbatan qo'llaniladi. Bir necha janrlardan tashkil topgan ilmiy, publitsistik umumlashma tushuncha sifatida esa qorishiq ijodning o'ziga xos sohasidir. Islom Karimovning bu sohaga oid mazkur asari turli

janrlarda yozilgan bo‘lib, uni umumiy nom bilan ilmiy-ommabop asar deb atash mumkin.

Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida so‘zni gavhar-u sadaf, ilohiy ne’mat ekanligi haqidagi mumtoz, hikmatona fikrlarini davom ettirish va boyitishga intiladi.

Islom Karimov tasavvurida so‘z muayyan fikr ifodasigina emas, balki jonli, xarakterdagi hilqat hamdir. *So‘z sehri* va *qudrati* oldida «lol-u hayron qolgan» muallif uni falsafiy idrok bilan ziynatlar ekan, unga insonga xos xususiyatlarni yuqtiradi, uni safardan muzaffar qaytgan g‘olibga qiyoslaydi, hatto, «poklik ham tahorat oladi», «so‘z bilan nodonlar dono», «xomxayol pishiq» bo‘lishini alohida uqtiradi. Shu bois so‘z aytish shunchaki oddiy nutq emas, qiyin mas’uliyat ekaniga urg‘u berar ekan, «hatto Navoiydek buyuk zotlar ham so‘z aytish mas’uliyatidan hayiqqan edi», - deya muallifning:

Oldig‘a qo‘yganni yemak - hayvon ishi,

Og‘ziga kelganni demak - nodon ishi, -

degan chuqur ma’noli so‘zlari ham bu fikrni tasdiqlab beradi. (118-bet)

Ma’lumki, so‘z biron tilga mansub turlicha «Til esa robita vositasi sifatida mavjud. Shu ma’noda u o‘lik so‘zlar xazinasidan iborat. Uning muayyan vazifa bajarishi esa nutq jarayonida voqe bo‘ladi»¹. Mualliflik shunday jarayonlardan biri, muallif esa «o‘lik» so‘zlarga «jon» bag‘ishlovchi ijodkordir. Shu sababli muallifning so‘zga oid qarashlari bir-biri bilan aloqadorlikda, bir-birini izohlagan, to‘ldirgan holda bayon etiladi. Islom Karimov mahorati shundaki, so‘z qo‘llashlikni ideallashtirgan yoki havoyi talqin qilgan emas. Aksincha, mualliflikning yuksak martabasini uning murakkab vazifasi bilan bir butunlikda ko‘radi, ustoz Navoiyning fikrlariga ijodiy yondashib ularga «ulush» qo‘shishga harakat qiladi.

Diqqatga loyiq jihatlardan biri shundaki, Islom Karimovga xos tabiat, idrok va obrazli ifodaga xos moyillik ham o‘zak xususiyatlar uning mazkur asariga ham

¹ Sarimsoqov B. Badiylik asoslari va mezonlari. Toshkent. 2004. B. 22.

ko'chgan. Ayniqsa, o'xshatish, jonlantirish, sifatlash, majoziylik, so'zni ma'no tovlanishlari kabi badiiy-tasviriy vositalar keng qo'llanilib, fikrning ta'sirchan, jozibali va maroqli bo'lishiga erishiladi. Bu jihatdan iste'dod haqidagi qarashlar xarakterlidir. Muallif iste'dodni chinakam bosh mezoni ekanligi xususidagi qarashlarini quyidagi parchada ishonarli va original o'xshatish vositasida bayon etadiki, uni iste'dodning obrazlashgan tavsifi deyish mumkin.

Ko'rinadiki, I.Karimov til va tilshunoslikning nozik masalalarini teran tushungani holda, bu borada «oqni qoradan ajratish»da chin mutaxassislar kabi fikr yuritadi. Ular fikrlarini jur'at bilan tafakkur tarozisida o'lchay oladi.

Til ta'limi masalasi nafaqat til va ta'limning, balki davlatning ustuvor ijtimoiy-siyosiy yo'nalishlaridan biridir. O'zbek tilshunosligi va ona tili ta'limida bu masalaga turlicha yondashuvlar kuzatiladi. I.Karimov til, so'z, tilshunoslik, til ta'limi haqida o'z fikrlarini bayon etar ekan, bunda til ta'limi o'quvchini til imkoniyatlarini egallashga yo'naltirishiga ishora qiladi. Islom Karimov «... bu ishda birinchi va eng katta yordamni maktab bermog'i kerak. Faqat ona tili va adabiyot o'qituvchisigina emas, boshqa hamma o'qituvchilar ham ona tilining shaydosi bo'lganlari holda, qaysi fandan dars berishlaridan qat'iy nazar bolalarga shu shaydoliklarini yuqtira bilmoqlari kerak. Buning uchun fizika yoki jug'rofiya o'qituvchisi o'z darsini ona tili darsiga aylantirib yuborishi kerak emas, balki o'z fanining materiallaridan ham foydalanib, tilimizning tarovatini amalda ko'rsatib bersalar kifoya». Bu fikrlar bugungi kunda ommalashayotgan til ta'limida uning hayotiylikini ta'minlashga xizmat qiladigan pragmatik yo'nalish qaror topayotgan bir sharoitda o'ta muhim. Zero, til qurilishini emas, balki til imkoniyatini egallash hayotiy ehtiyojga aylanib bormoqda.

2.2. Maqollarning qo‘llanilishi

Ma’lumki, tilimizda so‘zga husn berish, fikrni tushuntirishni osonlashtirish, uni yorqin va ta’sirchan qilish uchun maqollardan foydalaniladi. “Maqol”, aslida arabcha bo‘lib, “so‘z” degan ma’noni bildiradi. Maqol xalq og‘zaki ijodi janri, qisqa va lo‘nda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal ma’noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli birlikdir. Maqollar juda keng tarqalgan janr bo‘lib, necha asrlardan buyon o‘zaro suhbat jarayonlarida, turli xil badiiy, ilmiy, tarixiy, siyosiy va publitsistik asarlarda qo‘llanib kelgan va qo‘llanmoqda. Birinchi Prezidentimizning “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida ham xalq maqollariga murojaat qilinadi. Asar tarkibida uchraydigan quyidagi maqollarga ahamiyat beramiz: *“Yo‘lini topibdimi, qandini ursin”, “Uzumini yeng-u, bog‘ini surishtirmang”*.¹ Ushbu maqollar nutqimizda ham tez-tez ishlatilib turadi. Muhim jihati shundaki, mazkur maqollarga asarda muallifning munosabati ham bildiriladi: “Agar e’tibor bersak, tilimizda halollik va nopoklik haqidagi ibratli hikmatlar bilan birga, *“Yo‘lini topibdimi, qandini ursin”, “Uzumini yeng-u, bog‘ini surishtirmang”* degan maqollar ham borligidan ko‘z yumib bo‘lmaydi”,²- degan fikrlar bilan birga, quyidagi chuqur ma’noli so‘zlarni ham alohida ta’kidlaydilar: “Lekin mening nazarimda, bunday gaplar odamning boylik va mol-dunyoni qanday yo‘llar bilan topayotganiga loqayd va beparvo qaraydigan, manfaatparast shaxslar tomonidan to‘qib chiqarilgandek tuyuladi. Ularning fikricha, inson o‘z boyligini peshona teri to‘kib, Ollah bergan aql-idrok va tafakkurini ishlatib topyaptimi yoki qing‘ir-qiyshiq, harom-xarish yo‘llar bilan orttiryaptimi, bu go‘yoki hech kimni qiziqtirmasligi kerak”.³ Maqollarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olsak, ular, albatta, asrlar davomidagi xalq tajribalariga asoslangan va pand-nasihah ruhida bo‘lishi lozim.

O‘zbek xalq maqollari bir necha marotaba bir qator olimlar tomonidan mavzulashtirilgan holda to‘plam holiga keltirilgan. Shulardan biri, To‘ra Mirzayev, Asqar Musoqulov, Bahodir Sarmisoqovlar tomonidan 2005-yilda tuzilgan

¹ Karimov.I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch, T., “Ma’naviyat”, 2008, 21-bet.

² O‘sha joyda, 21-bet.

³ O‘sha joyda, 22-bet.

“O‘zbek xalq maqollari” jamlanmasidir. Yuqoridagi ikkita maqol ham ana shu o‘zbek xalq maqollari to‘plamlaridan o‘rin olgan va tilimizda turli nutq vaziyatlarida, ayniqsa, so‘zlashuv uslubida ko‘proq qo‘llanilib kelinmoqda. “Uzumini yeng-u, bog‘ini surishtirmang” maqoliga ayrim manbalarda¹ o‘ziga xos izoh berilgan. “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida esa Birinchi Prezidentimiz bu maqollarga nisbatan bunday mazmundagi maqollar bizning ma’naviyatimizga, umuman, o‘zbek xalqining milliy xarakteriga to‘g‘ri kelmaydi, degan fikrlarni bildiradilar. Albatta, maqollar birinchi o‘rinda fikrni to‘liq va sodda yetkazib berishi bilan birgalikda, xalqning ma’naviy darajasini oshirishga ham xizmat qilishi lozim.

Asardagi navbatdagi maqol: *“Bilagi zo‘r birni yiqar, bilimi zo‘r mingni yiqar”*.² Ushbu maqol ham tilimizda keng qo‘llaniladi. Maqol orqali inson doimo aql-idrok va bilim orqaligina ko‘zlagan maqsadiga erishishi, insonning qudrati uning bilagidagi kuchida emas, ilmida ekanligini va bunday chuqur mazmundagi maqollar insonni doimo aql-idrok, adolat va yuksak ma’naviyat asosida yashashga da’vat etishi g‘oyat chiroyli ifodalab berilgan. Ushbu maqol o‘zbek xalq maqollari to‘plamlarida “Ilm, kasb-hunar va ilmsizlik” mavzusi ostida kiritilgan.³ Asar tilida qo‘llangan *“Oqqan daryo oqaveradi”*⁴ maqoli ham o‘zbek xalq maqollari turkumiga kiritilgan bo‘lib, “tariximizning qaysi davrini olmaylik, yurtimizda ilm-u ma’rifat va yuksak ma’naviyatga intilish hech qachon to‘xtamagini, xalqimiz dahosining o‘lmas timsoli sifatida eng og‘ir va murakkab davrlarda ham yaqqol namoyon bo‘lganligi”⁵ g‘oyasi ochib beriladi. Ushbu maqol o‘zbek xalq maqollarining izohli lug‘atlarida “Oqqan ariq oqmay qolmas” shaklida keltiriladi va tilimizdagi boshqa variantlari ham beriladi⁶. Masalan, “Oqqan ariq oqmay qolmas, oqmay qolsa, ikki ko‘zing boqmay qolmas”, “Oqqan ariqdan yana suv

¹ Shomaqsudov.Sh, Shorahmedov.Sh. Hikmatnoma. T., 1990. 409-bet.

² Karimov.I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T., “Ma’naviyat”, 2008, 45-bet.

³ Mirzayev.T, Musoqulov.A, Sarmisoqov.B. “O‘zbek xalq maqollari”. T., 2005, 69-bet

⁴ Shomaqsudov.Sh, Shorahmedov.Sh. Hikmatnoma. T., 1990. 339-bet.

⁵ Karimov.I.A. “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”. T., “Ma’naviyat”, 2008, 49-bet.

⁶ Shomaqsudov.Sh, Shorahmedov.Sh. Hikmatnoma. T., 1990. 339-bet.

oqar”, “Oqqan ariqqa suv keladi”, “Oqqan ariq qurimas”¹ kabi variantlarini ko‘rishimiz mumkin. Bu maqol tilimizda, turli nutq vaziyatlarida qo‘llanilib yuradi va muallif tomonidan o‘ziga xos mazmunda talqin qilinib o‘zining yana bir ma’no qirrasini kashf etgan.

Asarda oila va mahallaning xalqimiz hayotidagi rolini ochib berish maqsadida “*Qush uyasida ko‘rganini qiladi*”,² “*Mahalla ham ota, ham ona*”³ kabi chuqur mazmunli maqollar qo‘llanilgan. Muallif tomonidan bildirilgan quyidagi fikrlar ahamiyatga molikdir: “Bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo‘lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta’sirida ma’naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo‘la boshlaydi. Xalqimizning “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan dono maqoli, o‘ylaymanki, mana shu azaliy haqiqatni yaqqol aks ettiradi”.⁴ Oilaning ma’naviyatni shakllantirish va yuksaltirishdagi beqiyos o‘rnini ko‘rsatishda ushbu xalq maqoli juda o‘rinli qo‘llangan. Ba’zi manbalarda⁵ ushbu maqol izohi va variantlari bilan beriladi. Izoh sifatida keltirilgan she’r esa maqol mazmunini to‘liq ochib bergan.

“Chumchuqvoy bilan Chumchuqxon urishib qoldi,

Bu holni chumchuqlar ko‘rishib qoldi.

Ertasi ular ham bir-birin yular,

Chunki, qush uyasida ko‘rganin qilar”.⁶

“*Mahalla ham ota, ham ona*” maqoli ham mahallaning hayotimizdagi ahamiyatini ko‘rsatish bilan birga, mahallaning ikkinchi oila ekaniga ishora qiladi. “Xalqimizga xos o‘zini o‘zi boshqarish tizimining bu noyob usuli qadim-qadimdan odamlarning nafaqat tilida, balki dilida, butun hayotida chuqur joy egallagani bejiz emas. “*Mahalla ham ota, ham ona*” degan hikmatli naqlni ana shu hayotiy haqiqatning ifodasi sifatida qabul qilamiz. Mahalla haqida gapirganda, ko‘pchilik

¹ Shomaqsudov.Sh, Shorahmedov.Sh. Hikmatnoma. T., 1990. 339-bet.

² Karimov.I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. T., “Ma’naviyat”, 2008, 53-bet.

³ O’sha joyda, 59-bet.

⁴ O’sha joyda, 53-bet.

⁵ O’sha joyda, 501-bet.

⁶ O’sha joyda, 501-bet.

ana shunday chuqur ma'noli so'zlarni eslashi va tilga olishi tabiiy"¹. Maqol juda o'rinli qo'llangani ko'rinib turibdi. Shuningdek, mahalla mavzusidagi maqollar o'zbek tilidan boshqa tillarda juda kam uchraydi.

Umuman olganda, asarda jami 6 ta maqol qo'llangan. Maqollar soni kamdek tuyulishi mumkin, ammo har qadamda maqollarni qo'llayverish ham g'alizlikni keltirib chiqaradi. Asarning badiiy asar emasligini, ommaga mo'ljallanganini va deyarli barcha nutq uslublaridan foydalanilganini hisobga olsak, maqollar soni kam bo'lishi tabiiy hol. Bundan tashqari, maqollar faqat kerakli o'rinda, mahorat bilan qo'llangan. Yana bir jihati asarda *maqol* atamasi o'rnida *naql*, *matal*, *hikmatli so'z* kabi terminlardan ham foydalanilgan. Aslini olganda, maqol *ba'zan zarbulmasal*, *naql*, *hikmat*, *hikmatli so'z*, *tanbeh*, *mashoyixlar so'zi*, *hikmatli maqol*, *otalar so'zi* kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Aslida, bu atamalar o'zining ma'nosiga va shakliga ega. Asarda ommaviylikka, xalqchilikka intilish maqsadida ham *maqol* atamasi o'rnida, uning oddiy so'zlashuv uslubidagi "sinonimlari" qo'llangan deyish mumkin.

Azaldan donishmand kishilar, mashhur insonlar, notiqalar, yozuvchi va mualliflar, jurnalistlar, so'z ustalari, davlat rahbarlari o'z nutqlarida maqollardan foydalanib kelganlar. Asarda ham muallif tomonidan "fikrning qaymog'i" sifatida o'rinli va mahorat bilan qo'llangan maqollar asardagi aytilmoqchi bo'lgan fikrlarni sodda va tushunarli ifodalashga, asar tilini yanada jozibali va xalqchil bo'lishiga xizmat qilgan. Asar tili yengil va tushunarli bo'lishida, albatta, asardagi har bir so'z va atama, ibora, hikmatli so'z, maqol hamda rivoyatlar o'rnini bilan qo'llanganligi muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, asardagi maqollar qo'llash mahorati shundan iboratki, maqol ma'nosi kengaygan, ya'ni u hamisha o'zi anglatadigan o'z ma'nosini yorib chiqib, muallif nutqida bizga qorong'u bo'lgan o'zgacha ma'nolarni kashf etgan. Aslida, maqol shunday birlikki, uni har xil talqin qilish mumkin, so'zlovchi uni o'zi bildirayotgan fikrga, nutq vaziyatiga qarab qo'llayveradi. Lekin, bu yerda bir narsani ham hisobga olish kerak, ya'ni

¹ Karimov.I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008, 59-bet.

soʻzlovchi xohlagan nutq vaziyatida xohlagan maqolini ishlata olmaydi. Asarda muallifning mahorati ham aynan shu jihatalarni hisobga olganida koʻrinadi. Yaʼni, maqollar oʻziga xos nutq vaziyatida juda toʻgʻri qoʻllangan. Bu esa asar tilining yanada mukammal boʻlishiga xizmat qilgan.

Umuman, “Yuksak maʼnaviyat - yengilmas kuch” asari tilida qoʻllangan maqollarni lisoniy tadqiq qilish ilmiy, ommabop uslubga xos xususiyatlarni aniqlash, qoʻllangan maqollarning matn mazmundorligini oshirishga qoʻshgan hissasini belgilash imkonini beradi va shu bilan birga, Birinchi Prezidentimizning tilimiz boyliklaridan foydalanish mahoratini oʻrganishda muhim maʼlumotlarni tuhfa qiladi.

2.3. Qoʻllanish davri chegaralangan soʻzlar

Qoʻllanish davriga koʻra chegaralangan soʻzlar yo eskilik, yo yangilik boʻyogʻiga ega boʻladi. Eskilik boʻyogʻiga ega boʻlgan soʻzlarga arxaizmlar va istorizmlar mansubdir. Arxaizm deganda mayjud voqelikning avvalgi nomi tushuniladi. Arxaizmlarda predmet saqlanadi, uning nomi esa eskiradi: Mas: *chigʻiriq-charxpalak, tilmoch-tarjimon, chechak-gul, baqqol-sotuvchi, moʻndi-uskuna, aqru-sekin, budun-xalq, azaq-oyoq, ern-lab, uma-mehmon, erik-tirishqoq, erdam-odob, koʻkramak-naʼra tortmoq, sandilach-saʼva, qirgʻilach-qaldirgʻoch, sandugʻach-bulbul, elig-hukmdor, boʻgu-dono, al-qizil, koʻni-toʻgʻri, cherik-qoʻshin, ev-uy, pasha-kasb, oʻkush-koʻp, art-tepa, talim-bir qancha*. Oʻzbek tilida ayrim qoʻshimchalar ham oʻzining arxaik shakliga ega. Jumladan, qadimgi tilimizda tushum kelishigining *-(i)g* yoki *-(i)gʻ* shakli (*sabigʻ eshitib-soʻzini eshitib*), joʻnalish kelishigining *(-ga)ru, (-gʻa)ru* shakllari (*ogʻuzgʻaru-oʻgʻizga*) va *-(i)n* qoʻshimchasi vosita keiishigi boʻlgan (*eligin tuldi-qoʻli bilan ushladi*). Shu bilan birga eski oʻzbek tilida *-duk, -duq* shaklidagi sifatdosh yasovchilar boʻlgan: *Ochilduk kun - ochilgan kun*. Shart maylining *-sa* shakii eski tilimizda *-sar* shaklida qoʻllangan: *borsar, kelsar* kabi. **Istorizm** deganda maʼlum bir tarixiy davrimizda qoʻllangan ijtimoiy-siyosiy soʻzlar tushuniladi: *qozi, devonbegi, hudaychi, mingboshi, lashkarboshi, ellikboshi, kanizak, paranji*. Tarixiy soʻzlarda soʻz tushuncha bilan birga eskiradi. Istorizmlarning arxaizmlardan asosiy farqi

shundaki, arxaizmlarning hozirgi tilimizda sinonimi bo'ladi, istorizmlar esa hozirgi tilimizda ma'nodoshiga ega bo'lmaydi. Bunday so'zlar tilimizga qaytsa, yangi ma'noda qaytadi. Mas: *hokim, vazir* kabi so'zlar adabiy tilimizga yangidan kirib keldi va faol leksemaga aylandi. Biroq bu so'zlar hozirda tarixiy ma'nosidan ancha uzoqlashib qolgan.

Islom Karimov asarlarida so'zlarning qo'llanish darajasidagi farqlar eskirgan va yangi so'zlar misolida ham kuzatiladi. Islom Karimovning eskirgan so'zlardan o'z publitsistik asarlarida foydalanish darajasi o'ziga xos. Muallif bundan quyidagi maqsadni ko'zlagan: a) fikrni ta'sirchanroq ifodalash; b) o'tmish voqeligini to'laqonli berish; d) o'zganing nutqini o'zgarishsiz uzatish. Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, adib asarlarida qo'llanish davri o'tgan *kommunistik, sho'ro, taassuf, proletar, qatliom, tilmoch* kabi yuzlab so'zlarni qo'llar ekan, o'sha davr ruhini ko'z oldimizda yaqqol namoyon qiladi. Ularning qo'llanish darajasi ham turlicha.

Umuman olganda, modal so'zlarni qo'llashda ham Islom Karimov boshqa so'z san'atkorlaridan alohida ajralib turadi. Bu so'zlar uning nutqida ancha faollashganligi haqida xulosa qilish mumkin.

I.Karimov asarlarida qo'llanish davri chegaralangan so'zlar sirasida neologizmlar ham mavjud. Yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar neologizm deyiladi. Bunday so'zlar iqtisod, madaniyat, fan-texnika taraqqiyoti natijasida tilimizga kirib kelmoqda. Mas: *internet, elektron pochta, sayt, slayd, avizo, broker, blogger, polis, flesh karta* kabi.

Neologizmlar voqelikdagi yangiliklarni - turmushdagi, ijtimoiy-siyosiy sohadagi, ma'naviy-mafkuraviy, ilmiy yoki adabiy hayotdagi, umuman olganda, borliqning in'ikosi bo'lgan ijtimoiy ongdagi yangi tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklardir. Quyidagi so'zlar I.Karimov asarlarida faol qo'llangan neologizmlarga misol bo'la oladi: *kompyuter, internet, biznes, menejment, birja, kontrakt, konversiya, investitsiya, globalizm, terrorizm, kredit, test, ball, reyting, sinov, istiqlol, ishbilarmon, tadbirkor, fermer, savdogar, vazir, milliarder, biznesmen, manqurt, kollej, akademik litsey* va hokazo. Bu sirani yana ancha davom ettirish mumkin.

Ijtimoiy faol I.Karimov asarlarida o‘tmish, bugun va kelajak mushtarak va yaxlit idrok etilganligi, bugungi milliy va global muammolarning ildizlari va yechimi masalasida o‘ziga xos qarashlari bo‘lganligi, shuningdek, davr bilan hamohang qadam tashlaganligi sababli muallif asarlarida eskirgan so‘zlar ham, yangi kirib kelgan yoki yangi ma’no kasb etgan so‘zlar ham o‘ziga xos publitsistik maqsad ifodasi sifatida o‘rni bilan, adabiy til me’yorlari va uslubiga muvofiq ravishda qo‘llanilgan.

Umuman, barqaror birikmalar va qo‘llanish davriga ko‘ra chegaralangan so‘zlar Islom Karimov asarlarining o‘qishligi va ta’sirchanligini ta’minlovchi vositalardan biri sifatida yuksak mahorat bilan qo‘llangan.

II Bob bo‘yicha xulosa

Islom Karimov tasavvurida *so‘z* muayyan fikr ifodasigina emas, balki jonli, xarakterdagi hilqat hamdir. Shu bois so‘z aytish shunchaki oddiy nutq emas, qiyin mas’uliyat ekaniga urg‘u berar ekan, Navoiydek buyuk zotlarning so‘z aytish mahoratiga ham to‘xtaladi.

“Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida jami oltita maqol qo‘llangan. Maqollar soni kamdek tuyulishi mumkin, ammo har qadamda maqollarni qo‘llayverish ham g‘alazlikni keltirib chiqaradi. Asarning badiiy asar emasligini, ommaga mo‘ljallanganini va deyarli barcha nutq uslublaridan foydalanilganini hisobga olsak, maqollar soni kam bo‘lishi tabiiy hol. Bundan tashqari, maqollar faqat kerakli o‘rinda, mahorat bilan qo‘llangan.

“Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asari tilida qo‘llangan maqollarni lisoniy tadqiq qilish ilmiy, ommabop uslubga xos xususiyatlarni aniqlash, qo‘llangan maqollarning matn mazmundorligini oshirishga qo‘shgan hissasini belgilash imkonini beradi.

III BOB. “YUKSAK MA’NAVIYAT-YENGILMAS KUCH” ASARI TILINING USLUBIY XUSUSIYATLARI

3.1. Islom Karimovning matn yaratish mahorati

Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asari keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallanganligi tufayli unda xalqonalik va xalqchillikni ta’minlash maqsadida, avvalgi bobda ta’kidlanganidek, xalq maqollari va barqaror birikmalarning turli ko‘rinishlaridan foydalaniladi. Asar bayonida fikrlarning quvvatlovchisi, mustahkamlovchisi, informativlik va ekspressivlikning yaxlitligi sifatida namoyon bo‘ladi. Muallifning boshqa asarlari kuzatilganda, ularda maqollarning juda ko‘p qo‘llanganini ko‘ramiz. Bir nechta maqol yo muallif tomonidan yaratilgan yoki muallif mavjud maqolni ayrim o‘zgartirish kiritish bilan qo‘llagan: “Bolaning ongi asosan 5—7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo‘lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta’sirida ma’naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo‘la boshlaydi. Xalqimizning «Qush uyasida ko‘rganini qiladi», degan dono maqoli, o‘ylaymanki, mana shu azaliy haqiqatni yaqqol aks ettiradi”.(53-bet)

Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi, tarkibiy qismlarining barqarorligi belgisiga ko‘ra umumiylikni tashkil etsa ham, ma’no butunligi nuqtayi nazaridan turlichadir. Shunga ko‘ra, barqaror birikmalar quyidagi guruhlarga bo‘linadi: 1. Maqol va matallar. 2. Aforizmlar. 3. Frazologizmlar.

Grammatik jihatdan gap holda shakllangan, xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan barqaror birikmalar maqollar sanaladi. Masalan, *Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi. Bolta tushguncha, to‘nka dam oladi.*

Maqollar xalqning hayotiy tajribasi, donishmandligi natijasida maydonga keladi. Ular nutq jarayoniga qadar tilda tayyor holda barqaror birikma sifatida mavjud bo‘ladi. So‘zlovchi bunday birikmalarni yaxlit holda nutqiga olib kiradi.

Maqollar fikrni ta’sirchan, bo‘yoqdor qilib ifodalovchi qudratli vositadir. Nutqda maqollardan o‘rinli foydalanish so‘zlovchining mahorati sanaladi.

“Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asari dagi barcha fikr-mulohazalar purhikmat maqollarning mohiyatini ifodalashga qaratilgan. Mantiqan zid bu

tushunchalar munosabatida abadiy hayot tarzi akslanar ekan, «inson zakovati» ana shu dardni da'volovchi hakimdir. Bu jarayon jang shaklida davom etaveradi. Zero, muallifning «Janglar jang emas, yaxshilarni yod etish jang. Bu jangda mag'lublar bo'lmaydi, faqat g'oliblar bo'ladi, o'qlar otilmaydi va ezgulik saltanatida har bir munosib xotirlash odamlarning bir-biriga armug'on etayotgan toj u taxtlaridir», degan aqidasida majoziylik-falsafiylik ustuvor. Darhaqiqat, marhumlarni xotirlash va qadrlashning yaxshilik savob yo'lidadagi «qurol», ishlatilmaydigan o'ziga xos «jang» sifatida ta'riflanishi individual topilma fikrdir.

“Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch” asari Islom Karimovning bu janrdagi iste'dodini yanada keng namoyon etgan asardir. U nisbatan ko'lamdorligi va muhim mavzuga bag'ishlangani bilan emas, mazmun, shakl va ifodaning o'ziga xos uyg'unligi bilan ham maroqlidir. Binobarin, asarning asosiy farqli jihatlari quyidagi holatlarda ko'rinadi: 1) unda falsafiy-ma'naviy mavzu yetakchi bo'lgan holda qisman adabiy-fantastik va axloqiy-didaktik motivlar ham uchraydi; 2) matn bayoni ayrim o'rinlarda II va III shaxslarga mansub bo'lsa ham, barcha fikr va kechinmalar muallif «meni»ga tegishlidir; 3) asar talqinida she'riy satrlar va obrazli ifodalar, maqol va aforizmlar nisbatan kengroq qo'llanilgan.

“Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch” asari inson va uning yaxshi amallarini ulug'lash g'oyasi asosiga qurilgan bo'lib, “ma'naviyat”, “mehr”, “ko'ngil”, “do'stlik”, “vatan” tushunchalari tayanch atributlar vazifasini bajaradi. Muallif har birining mohiyatini chuqur his qilgan holda ulardan falsafiy ma'no topadi, originallikka intiladi. Navoiy baytlari va boshqa mutafakkirlar tomonidan bildirilgan fikrlarni davom ettirishga va o'zi esa bugungi zamondoshlar ma'naviyatini boyitishga erishadi. Chunonchi, asar matni boshidayoq buyuk allomalarimiz nomlarini keltiradi. Bu ramziylik asarni ijtimoiy-falsafiy mazmunini ta'sirli, emotsional ifodalashga xizmat qiladi. Asarda ko'ngil, do'stlik tushunchalari bilan bog'liq mavjud fikrlar muallif talqinida yanada rivojlantirilib, hozirgi davr, hayot, odamlar ma'naviyati muammolariga daxldor ravishda istifoda etiladi. Darhaqiqat, muallif uqtirganidek, avvalo, insonning ko'ngli uning onasida, millatida, vatanidadir. Shuning uchun ham siz har bir odamni kamsitayotib, uning

onasini, millatini, vatanini yerga urayotgan bo'lasiz. Boringki, hamma-hammani ko'nglini topish qiyin. Lekin hech kimning ko'nglini og'ritishga haqqimiz yo'q. Dunyodagi barcha balo-ofatlar... biri-birilarini topolmagan ko'ngillarining taqdirga qarshi isyonidan bino bo'ladi. "Azal-azaldan ochiqko'ngil, samimiy va mehnat-kash, yaxshilikni yuksak qadrlaydigan xalqimiz bunday illatlardan doimo hazar qilib keladi". (121-bet.)

Muhimi shundaki, asar-navis o'z qarashlarini «raviy» emas, balki donishmand kuzatuvchi sifatida dono, ma'nodor, umumlashma ko'chma fikrlar bilan teranlashtiradi. Masalan, "Albatta, bu dunyoda halol va pok yashashni o'zi uchun hayotiy e'tiqod, oliy maqsad deb biladi-gan odamlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Aynan ana shunday insonlar va ularning ezgu ishlari tufayli bu yorug' olamda ma'naviyat hamisha barqaror bo'lib keladi" (20-bet); ...chorizm mustamlakasi davrida ma'rifat g'oyasini baland ko'tarib chiqqan jadid bobolarimizning faoliyati bunga yana bir yorqin misol bo'la oladi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Ishoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab ma'rifatparvar, fidoyi insonlarning o'z shaxsiy manfaati, huzur-halovatidan kechib, el-ulus man-faati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan **ezgu ishlari** avlodlar xotirasidan aslo o'chmaydi. (49-bet.) Umuman olganda, insoniyat tarixi ma'naviyat - insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch-qudrat manbayi ekanini, bu hayotda ma'naviyatsiz hech qachon odamiylik va mef-oqibat, baxt va saodat bo'lmasligini yaqqol tasdiqlaydi (29-bet) va boshqalar.

Asarda do'stlik tushunchasi yuqoridagi falsafiy-ma'naviy qarashlarni yanada boyitgan, takomillashtirgan holda talqin etiladi. Bunda bu so'z zaminidagi yangi ma'no qirralari kashf etilib ezgulik mazmunini quyuqlashtiradi, aforistik xarakterini oshiradi. Jumladan, "Shuni aytish lozimki, xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda **milliy urf-odatlarimiz** va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulurlash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora

muhim ahamiyat kasb etmoqda” (96-bet); Ota-bobolarimiz necha asrlar mobaynida shu bepoyon mintaqada qanday hamjihat bo‘lib, qanday qadriyatlar asosida yashab kelgan bo‘lsa, bugun ham, ta’bir joiz bo‘lsa, tarix va hayot gardishi, tabiatning o‘zi bizni - butun O‘rta Osiyo xalqlarini aynan ana shunday do‘stlik va hamkorlik ruhida hayot kechirishga da’vat etmoqda. (10-bet)

Islom Karimovning ayrim asarlari xususidagi ayrim kuzatishlarimiz bir fikrni ta’kidlashga asos beradi. Asarga xos ba’zi unsurlarning adabiy-tanqidiy holda maqolalar tarkibida «nishona» ko‘rsatishi, qisqacha aytganda «universallik» xususiyatlari janrning tub, turg‘un belgisini o‘zgartira olmaydi. Zero, bu belgi falsafiy-publitsistik fikrni badiiylik qobig‘ida erkin ifodalashdir. Islom Karimov asarlarini ushbu tamoyillar asosida atroflicha o‘rganish turli mavzularga mansub asarlaridagi tasvir va ifoda imkoniyatlari, tipologik va farqli xususiyatlar, shaxs konsepsiyasiga yondashuvda muallif pozitsiyasi, mahorat, badiiylik mezonlari, sinkretik talqinda individual uslubning o‘rni kabi dolzarb muammolarni chuqur tadqiq etishga yordam beradi.

Maqollar va aforizmlar ham, iboralarda bo‘lgani kabi, alohida obrazlilikka, bo‘yoqdorlikka ega ekanligi sababli unda muallifning yoki, umuman olganda, so‘zlovchi shaxsning voqelikka ijobiy yoki salbiy munosabati namoyon bo‘ladi.

Islom Karimov asarlarida bu so‘zlarning qo‘llanish darajasi o‘ziga xos bo‘lib, ularning nutqiy voqelanishida adibning mahorati alohida ahamiyat kasb etgan. Ular ba’zan voqelikni to‘g‘ri aks ettirish, davr va hudud ruhini yaqqol ifodalash, shuningdek, o‘quvchiga emotsional-ekspressiv ta’sir qilish maqsadida istifoda etilgan.

Iboralar. Frazologiya bo‘limida iboralar o‘rganiladi. Iboralar ma’no yaxlitligiga ega bo‘ladi va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so‘zlarning barqaror munosabatidan tashkil topadi, nutqqa tayyor holda olib kiriladi va doimo ko‘chma ma’noda qo‘llanadi. Boshqacha aytganda, tilda ikki va undan ortiq so‘zning o‘zaro birikib bir ko‘chma ma’no ifodalashiga ibora deyiladi. Iboralar, asosan, so‘zlashuv va badiiy uslubda qo‘llaniladi. Ular nutqni ta’sirchan, jozibali qiladi.

Islom Karimovning nutqida qo‘llangan iboralar ijobiy yoki salbiy bo‘yog‘i bilan yaqqol ajralib turadi. Olim va davlat arbobi yo o‘z munosabatini, yoxud tilga olinayotgan shaxs munosabatini ifodalash maqsadida iboralardan foydalanadi. Masalan, o‘zganing munosabatini ifodalashda ham o‘zining ushbu «o‘zga»ga munosabati namoyon bo‘ladi. Deylik, xalqlar tarixida mash‘um xizmatlari bilan nom qoldirgan bolsheviklarga salbiy munosabatini ifodalashda ularning o‘z nutqidan foydalanadi. Adib o‘z fikrlarini bayon etish asnosida iboralar vositasida o‘ziga munosabatini ham namoyish qilib ketadi. Masalan, Shuning uchun «yapon mo‘‘jizasi» yoki «koreys mo‘‘jizasi» haqida gap ketganda, taniqli ekspert va mutaxassislar ham birinchi galda «*yapon xa-rakteri*», «*koreys tabiati*» degan iboralarni tilga oladi. Tabiiyki, ular bu o‘rinda avvalo mazkur xalqlarga mansub ma’naviy fazilatlarni nazarda tutadi. Ya’ni, bu xalqlarning ichki dunyosi va irodasi ma’naviyat negizida yanada toblangan, kamolga etgan. (27-bet)

Biz ko‘p tortishuv va fikr almashuvlardan so‘ng Sohibqironning qo‘llarini bir-biriga qo‘yib turgan holatini ham o‘zgartirdik, barmog‘idagi «*Kuch - adolatda*» degan mashhur so‘zlar bitilgan uzugini bo‘rttirib ko‘rsatishga qaror qildik. Ma’lumki, bu uzuk va uning ko‘zidagi hikmatli ibora Amir Temurni butun dunyoga mashhur qilgan.(154-bet)

Muallif o‘z asarlarida achinish, befarqlik, g‘azab, nafrat kabi munosabatlarni ifodalashda ham iboralarning nozik ma’no ottenkalaridan mohirona foydalanadi. Bunda so‘z va iboralar tizimi munosabatning salbiydan ijobiyga o‘shishini ko‘rsatadi.

Islom Karimov ayrim okkazional iboralar ham qo‘llaydiki, bu uning ona tili imkoniyatlaridan oziqlanish barobarida uning boyishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shganligidan dalolat beradi. Masalan, Eng muhimi shundaki, «*portlash effekti*»ning haqiqiy mohiyati va ahamiyati vaqt o‘tishi bilan, biz tarbiya qilayotgan sog‘lom va barka-mol avlodning safimizga tobora ildam kirib borishi bilan yanada yaqqolroq seziladi (64-bet); O‘sha paytda sobiq ittifoq hududidagi ayrim mamlakatlarda «*shok terapiyasi*» degan usul bilan bir sakrab bozor

iqtisodiyotiga o'tish yoki alohida bir davlatda «*demokratiya orolchasi*» barpo etish haqida qancha-qancha shov-shuvlar ko'tarilgan edi.(104-bet)

3.2. Asar tilining ma'naviy-uslubiy xususiyatlari

Asar tilini, muallifning til va uslub mahoratini o'rganish turli uslublarda turlicha olib boriladi. Masalan, ilmiy-ommabop uslubda adib borliqqa munosabatini bilvosita, ya'ni tanlangan obrazlar orqali ifoda qilsa, ilmiy-ommabop uslubda muallif bevosita munosabat bildiruvchi sifatida namoyon bo'ladi. Bu ilmiy-ommabopuslubning ikki: a) informativ; b) ekspressiv xususiyati bilan xarakterlanadi.

Ilmiy-ommabop asarlar tilini tadqiq qilishda tilshunoslar turli tasnifiy va tavsifiy tamoyillarga tayanadilar. Masalan, o'zbek tili ilmiy uslubini ilk bor monografik planda o'rgangan T.Qurbonov tahlil jarayonida stilistik va statistik usullarga tayangan holda ilmiy-ommabop nutqda namoyon bo'luvchi lingvistik, intralingvistik va ekstralingvistik omillarga bog'liq ravishda leksik vositalar tanlanishiga e'tibor qaratadi. Olimning ta'kidicha, ilmiy-ommabop uslub leksik strukturasi shakllanishida omil va vositalarni farqlash muhim. Bunday omil ikkita: a) informativ omil; b) ekspressiv omil. Shunga ko'ra, leksik vositalarni quyidagicha uch guruhga bo'lish an'anasi mavjud: a) kontseptual leksika; b) emotsional leksika; v) betaraf leksika.

Albatta, bu ilmiy-ommabop uslubga mansub asar janr xususiyati bilan ham belgilanadi. Masalan, asarning mavzusiga qarab, uning leksik xususiyatlari siyosiy mavzudagi ilmiy-ommabop asardagidan keskin farqlanadi. Konseptual leksika tarkibida siyosiy janrda ijtimoiy-siyosiy leksika ustuvorlashsa, asarda badiiy, ijtimoiy-maishiy leksika va ma'naviyatga daxldor birliklar ko'proq uchraydi. Islom Karimovning tadqiq manbasi sifatida tanlangan asar va maqolalari so'zlashuv, badiiy uslublar qorishuvining ustuvorligi, ijtimoiy leksikaning faolligi bilan xarakterlanadi. Biroq, baribir, ilmiy-ommabop uslubning leksik o'ziga xosliklari orasida uslubiy vositalarning qat'iy har xilligini alohida ta'kidlash lozim.

Islom Karimov qaysi mavzuda qalam tebratmasin, uning ilmiy-ommabop tili leksikasida adabiy til leksikasining ilmiy terminlari, emotsional bo'yoqdor so'zlari,

standartlashgan va til ekspressiv birliklarining uyg'un qo'llanishidan tortib kundalik so'zlashuv nutqiga xos birliklarning keng qamrovli voqelanishigacha ko'rish mumkin.

Ilmiy-ommabop uslubning axborot, ma'ruza va boshqa qator lingvistik standartlashgan ko'rinishlari bunday yondashishdan uzoqda turadi. Tilshunos I.R.Galperinning ta'kidicha, «...asar tili maqola va ma'ruzalarning tilidan farqlanadi. Asar, odatda, birinchi shaxs tomonidan bitiladi. Bu esa unga bayon qilinayotgan dalilni juda ham individual va emotsional baholash, bayonning o'zini bo'yoqlarga boyitib, rango-ranglik baxsh etish imkonini beradi. Ko'pincha suhbat usuli qo'llanadi. Ba'zan xat usuli ma'qul topiladi». Bu esa leksikaning rang-baranglashuvini ta'minlaydi. Umuman olganda, qisqalik asarning bosh belgilaridan bo'lib, Islom Karimov asarlari o'zining tipik xususiyatlariga ega bo'lgani holda goh ilmiy prozaga, goh badiiy nutq uslubiga yaqinlashib ketadi.

Islom Karimov asarlari leksikasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri so'zlashuv uslubiga xos so'zlardan o'rinli va unumli foydalanishdir: Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat *o'rab-chirmab*, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi. (141-bet)

Islom Karimov asarlarida ikki marta qo'llangan, so'zlashuvga mansub *tez-tez* degan so'zining semantik, uslubiy va emotsional-ekspressiv xususiyati o'ziga xos: Nafaqat mavzu va musiqa, ijro usullari, balki sahna harakatlarida ham ochiqdan ochiq ajnabiy «ommaviy madaniyat» ko'rinishlariga taqlid qilish, «yulduzlik» kasaliga chalinish holatlari *tez-tez* uchrab turayotgani chinakam san'at muxlislarini ranjitmasdan qolmaydi, albatta. (142-bet)

Muallif kishilar nutqini berishda ham tabiiylik va mantiqiylikni ta'minlash barobarida o'quvchini ishontirish maqsadiga muvofiq so'zlashuv nutqining xos birliklariga yuqori ta'sirchanlik baxsh etadi.

Islom Karimov kinoya asosida butkul kitobiylik belgisiga ega bo'lgan ayrim birliklarga «so'zlashuvga xoslik» muvaqqat belgisini baxsh etadi. Natijada birlik emotsional-ekspressivlik bo'yog'iga ega bo'ladi: Biz o'shanda chetdagi «*maslahatchi*»larning «*dono kengashlari*»dan emas, balki xalqimizning xohish-irodasi, yurtimizdagi haqiqiy vaziyatdan kelib chiqqan holda og'ir-vazminlik bilan, har tomonlama chuqur o'ylab siyosat olib bordik.(105-bet)

Ko'rinadiki, Islom Karimov so'zlashuv uslubiga xos so'zlarni o'rni bilan qo'llab, ularni ilmiy-ommabop maqsadiga bo'ysundiradi, so'zlashuvda yuzaga chiqmaydigan ekspressivlik baxsh etadi. Ayrim kitobiy uslubga xos birliklarga ham «so'zlashuvga xos» nutqiy ma'no bo'yog'ini berib, betaraf ifoda semasini kuchaytirib, nutqiy relevantlik darajasiga olib chiqadi.

III Bob bo'yicha xulosa

Islom Karimovning ayrim asarlari xususidagi ayrim kuzatishlarimiz bir fikrni ta'kidlashga asos beradi. Asarga xos ba'zi unsurlarning adabiy-tanqidiy holda maqolalar tarkibida «nishona» ko'rsatishi, qisqacha aytganda «universallik» xususiyatlari janrning tub, turg'un belgisini o'zgartira olmaydi. Zero, bu belgi falsafiy, ilmiy-ommabop fikrni badiiylik qobig'ida erkin ifodalashdir. Islom Karimov asarlarini ushbu tamoyillar asosida atroflicha o'rganish turli mavzularga mansub asarlaridagi tasvir va ifoda imkoniyatlari, tipologik va farqli xususiyatlar, shaxs konsepsiyasiga yondashuvda muallif pozitsiyasi, mahorat, badiiylik mezonlari, sinkretik talqinda individual uslubning o'rni kabi dolzarb muammolarni chuqur tadqiq etishga yordam beradi.

Islom Karimov asarlarida bu so'zlarning qo'llanish darajasi o'ziga xos bo'lib, ularning nutqiy voqelanishida adibning mahorati alohida ahamiyat kasb etgan. Ular ba'zan voqelikni to'g'ri aks ettirish, davr va hudud ruhini yaqqol ifodalash, shuningdek, o'quvchiga emotsional-ekspressiv ta'sir qilish maqsadida istifoda etilgan.

Islom Karimov qaysi mavzuda qalam tebratmasin, uning ilmiy-ommabop tili leksikasida adabiy til leksikasining ilmiy terminlari, emotsional bo'yoqdor so'zlari, standartlashgan va til ekspressiv birliklarining uyg'un qo'llanishidan tortib

kundalik soʻzlashuv nutqiga xos birliklarning keng qamrovli voqelanishigacha koʻrish mumkin.

XULOSA

1. Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asari tilining o‘ziga xos xususiyatlari sirasida oddiylik, so‘zlashuv va badiiy uslub uyg‘unligi, ixchamlik, ifodaviylik, haqqoniylik, obrazlilik kabi sifatlar ustuvor.

2. Islom Karimov mohir so‘z san’atkori bo‘lish bilan birga, til, tilshunoslik, til ta’limi, til targ‘ibotchilari va tadqiqotchilari xususida til va jamiyat, til va taraqqiyot, til va ma’naviyat, til va mafkura, til va ruhiyat mushtarakligi tamoyillari asosida o‘z nuqtayi nazarini bayon qiladi. Bu fikrlar bugungi kunda til ta’limida uning hayotiylikini ta’minlashga xizmat qiladigan pragmatik yo‘nalish ommalashib, qaror topayotgan bir sharoitda o‘ta muhim va til amaliyoti masalalarida zarur metodologik ahamiyatga molik.

3. Islom Karimov asarlarida qo‘llanishi chegaralangan, tarixiy va arxaik so‘zlar o‘ziga xos informativ-ekspressiv vazifa bajargan. Adib so‘zlashuv uslubiga xos so‘zlarni o‘rni bilan qo‘llab, ularni ilmiy-ommabop maqsadiga bo‘ysundiradi, so‘zlashuvda yuzaga chiqmaydigan ekspressivlik baxsh etadi. Ayrim kitobiy uslubga xos birliklarga ham «so‘zlashuvga xos» nutqiy ma’no bo‘yog‘ini berib, betaraf ifoda semasini kuchaytiradi va lisoniy birliklarni nutqiy boshqaruvchilik darajasiga olib chiqadi.

4. Ijtimoiy faol I.Karimov asarlarida o‘tmish, bugun va kelajak mushtarak hamda yaxlit idrok etilganligi, olimning bugungi milliy va global muammolarning ildizlari, yechimi masalasida o‘ziga xos qarashlari bo‘lganligi, shuningdek, davr bilan hamohang qadam tashlaganligi sababli asarlarida eskirgan so‘zlar ham, yangi kirib kelgan yoki yangi ma’no kasb etgan so‘zlar ham o‘ziga xos maqsad ifodasi sifatida o‘rni bilan, adabiy til me’yorlariga muvofiq ravishda qo‘llangan.

5. Islom Karimov asarlari leksikasida mavjud iboralar tahlilidan ma’lum bo‘ldiki, unda so‘zlashuv, badiiy, ilmiy uslubga xos birliklar erkin qo‘llangan.

6. “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida qo‘llangan iboralar ijobiy yoki salbiy bo‘yog‘i bilan yaqqol ajralib turadi. Adib yo o‘z munosabatini, yoxud tilga olinayotgan shaxs munosabatini ifodalash maqsadida iboralardan foydalanadi.

7. Islom Karimov mohir soʻz sanʼatkori sifatida ona tili imkoniyatlarini yaqqol namoyon qiluvchi frazeologik birliklarning informativ funksiyasi bilan bir qatorda ekspressiv imkoniyatini ham zukkolik bilan idrok etib, voqelikka turlicha munosabatni ifodalash uchun mohirona foydalanadi.

8. “Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch” da maqol va matallar ham qoʻllangan boʻlib, asar tilining taʼsirchanligini oshirishga hissa qoʻshgan.

9. Muallif inson tasvirida tilning ichki imkoniyatlaridan – leksik birliklar, iboralar, maqol va matallardan, morfologik shakllardan, maʼno koʻchirish usullari va turli oʻxshatishlardan foydalanadi. Albatta, bunda haqqoniylik ilmiy-ommabop uslubning bosh tamoyili sifatida yetakchi oʻrinda tursa-da, muallif oʻrni bilan oʻzining subyektiv munosabatini bildiradi. I.Karimovning mahorati inson portretini berishda, ayniqsa, Alisher Navoiyni tasvirlaganda, soʻz qoʻllash jarayonida alohida koʻzga tashlanadi. Islom Karimovning ayrim fikrlarini aforizm sifatida ham baholash mumkin.

10. I.Karimov qalami millatning, xalqning ichki dunyosini «chizish»da asardagi mantiq yoʻnalishiga boʻysunadi. U tashqi tasvirga nisbatan ichki, yaʼni maʼnaviy qiyofa tasvirida bor mahoratini namoyish qiladi. Tasvir jarayonida muallif soʻzlarni tanlab-tanlab «ishga soladi». Har bir soʻz, har bir ibora, har bir maqol bevosita yoki bilvosita, portret tasviridagidan farqli oʻlaroq, ichki tasvir uchun xizmat qiladi.

11. Mohir muallif portretni nafaqat matnning bir joyidagina beradi, balki uni butun matn boʻylab sohib ham yuboradi. Shu boisdan portret tasviri talqinida yigʻma va yoyma tasvir bilan birga sochma tasvirni ham ajratish maqsadga muvofiq.

12.“Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch” asarida tilimiz rivojlanishi yoʻlidagi gʻoyalar ilgari surilgan. Islom Karimovning ona tilimizga munosabati, mehr-muhabbati ham oʻz ifodasini topgan. Muallif xalqning boy maʼnaviy meros va qadriyatlarga egaligini tildagi soʻzlarni misol keltirish orqali izohlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. Баркамол авлод орзуси (“Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”ни амалга ошириш борасидаги публицистик мулоҳазалар). - Тошкент: Ўзбекистон. 1999.
2. Республика "Маънавият ва маърифат" жамоатчилик марказини ташкил этиш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони//Халқ, сўзи, 1994, 24 апрель.
3. “Таълим тўғрисидаги “ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг қонуни .-Т.: Ўзбекистон, 1997.

Ўзбекистон Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov va hamda

Prezident Sh.M.Mirziyoyev asarlari

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли .- Т.: Ўзбекистон, 1992.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон –келажак буюк давлат . –Т.: Ўзбекистон, 1992.
4. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.: Ўзбекистон, 1997 .
5. Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни халқ, миллатни миллат қилишга хизмат этсин. – Т .: Ўзбекистон , 1998.
6. Каримов И.А. Баркамол авлод –Ўзбекистон тарраққиётининг пойдевори. Т.: Ўзбекистон, 1997.
7. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интиломда –Т.: Ўзбекистон, 1999.
8. Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. - Т.: Ўзбекистон , 2000.
9. Каримов И, А. Юксак маънавият – енгилмас куч – Т.: Маънавият, 2008.

10. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. - Т. Ўзбекистон, 2009.

11. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. . – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. –В.247

Darslik va o‘quv qo‘llanmalar

1. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. - Тошкент: Фан, 1984.

2. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. Тошкент: Фан, 1981.

3. Арутюнова Н. Д. Метафора и дискурс // Теория метафоры. – М., 1990.

4. Аҳмад С. “Безгакшамол” китобига ёзилган сўзбоши. – Тошкент, 1985.

5. Баракаев Р. Жонажоним шеърият (80-йиллар ўзбек болалар шеърияти хақида баъзи қайдлар). – Тошкент: Чўлпон, 1997.

6. Бафоев Б. Кўхна сўзлар тарихи. – Тошкент: Фан, 1991.

7. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент : Фан, 1983.

8. Бегматов Э. Назарий хулосалар тилшуносликнинг муҳим амалий вазифаларини ҳал этишга хизмат қилсин. – Тошкент: Ўзбек тили ва адабиёти, 1987. 3-сон, Б. 23.

9. Бегматов Э. Ўзбек тили лексикасининг ижтимоий тарихий асослари // Ўзбек тили лексикологияси, Тошкент: Фан, 1981.

10. Бобоева С. Ҳамид Олимжон поэзиясининг лексик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989.

11. Виноградов В.В. О теории художественной речи. – М.: изд-во Высшая школа. 1971.

12. Виноградов В.В. Проблемы русской стилистики. – М.: Высшая школа, 1981.

13. Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – М.: изд-во АН. 1963.

14. Винокур Г.О. О языке художественной литературы. – М.: Высшая школа, 1991.

15. Воҳидов Р., Неъматов Ҳ., Маҳмудов М. Сўз бағридаги маърифат.- Тошкент: Ёзувчи, 2001.
16. Григорьев В.П. Поэтика слова. М., 1979.
17. Гумбольдт В. О различии строения человеческих языков и его влияния на духовное развитие человеческого рода // Звегинцев В.В. История языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях, часть 1. – М.:Просвещение. 1964.
18. Дониёров Х. Навоий ва ўзбек адабий тили. -Тошкент: Ўқитувчи, 1972.
19. Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стил. -Тошкент: Фан, 1988.
20. Дониёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати (махорат ва тил хақида мулоҳазалар). – Тошкент: 1962.
21. Жинкин Н. И. Речь как проводник информации. – М., 1982.
22. Имомова Г. Типик миллий характерлар яратишда бадиий нутқнинг роли, НДА. - Тошкент, 1993.
23. Йўлдошев Б. Бадиий нутқ стилистикаси. -Самарқанд: СамДУ нашри, 1982.
24. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. -Самарқанд: СамДУ нашри, 1999.
25. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. ДДА.- Тошкент, 1993.
26. Йўлдошев Б., Бобожонов Ф., Пардаев З. Бадиий асар тили масалалари. - Навоий: Навоий ДПИ нашри, 2001.
27. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007.
28. Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2002.
29. Йўлдошев М. Чўлпоннинг халқ ибораларидан фойдаланишдаги маҳорати // Ўзбек тили ва адабиёти, 1999, 6-сон.
30. Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланмаси. – Самарқанд: СамДУ нашриёти. 1994.

31. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. -Самарқанд: Зарафшон, 1992.
32. Кунгуров Р., Каримов С., Эргашева К. Лингвостатистические аспекты исследования поэтических текстов современного узбекского языка // Вопросы моделирования языка и машинного перевода. Сборник научных трудов. – Самарқанд, 1984.
33. Қодиров П. Тил ва эл (Темурийлар давридаги мумтоз адабий тилимиз муаммолари).- Тошкент: Ғафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2005.
34. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. Тошкент: Фан, 1977.
35. Қўнғуров Р.Қ. Танланган асарлар. Самарқанд: СамДУ нашри, 2008.
36. Қурбонов Т. Тарихий бадиий асар ва давр тили масалалари.-Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
37. Қўчқортоев И. Бадиий нутқ стилистикаси. -Тошкент: ТошДУ нашри, 1975.
38. Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. Алишер Навоий номидаги миллий кутубхона нашриёти. Тошкент, 2009.
39. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. - Тошкент: Ўзбекистон, 2000.
40. Мирзаев И.К. Теория лингвистического анализа текста. Курс лекций. – Самарқанд: изд. СамГУ, 1987.
41. Миртожиев М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Тошкент, Фан, 2000.
42. Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992.
43. Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи. НДА. - Тошкент, 2004.
44. Муҳиддинов М., Каримов С. Ғафур Ғулумнинг поэтик маҳорати.- Самарқанд: СамДУ нашри, 2003.

45. Новиков А.А. Художественный текст и его анализ. М. Русский язык, 1988.
46. Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. Ўқув кўлланмаси (магистрлар учун). Тошкент, 2008.
47. Потебня А.А. Эстетика и поэтика. М. 1973.
48. Расулов А. Ўзлик сари йўл. – Тошкент: Адиб, 2012.
49. Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари. Самарқанд, 2007.
50. Солижонов Й. Бадиий асарда монологик нутқ // Ўзбек тили ва адабиёти, 2004, 3-сон. XX асрнинг 80-90-йиллари ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси, ДДА. - Тошкент, 2002.
51. Султонова М. Абдулла Қаҳҳор услуби. -Тошкент: Фан, 1967.
52. Тарланов З.К. Язык и культура. – Петрозаводск: Петрозаводский гос. Ун-т, 1984.
53. Томашевский Б.В. Стилистика и стихосложение. – Ленинград, 1959.
54. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, икки томлик, 1- 2 том, –М.: 1981.
55. Умурқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. Тошкент, 1990.
56. Ҳамидов З. Навоий бадиий санъатлари. -Тошкент: Университет, 2001.
57. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати, Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” нашриёти. 2002.
58. Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати, Тошкент: Ўқитувчи, 1970.
59. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.
60. Ҳусанов Баҳодир, Гуломов Валижон. Муомала маданияти. Тошкент, 2007.
61. Шомақсудов А. Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. Тошкент: Ўқитувчи, 1983.

Dissertatsiya va dissertatsiyalarning avtoreferatlari

1. Аҳмедов А. Фурқат поэзиясининг лексикаси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. - Тошкент, 1960
2. Аҳмедов Ҳ. Ўзбек адабиётида насрий шеър: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. - Тошкент, 1995.
3. Бабаева С. Лексико-стилистические особенности поэзии Хамида Алимджана: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. -Тошкент, 1989.
4. Боймирзаева С.У. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи: Филол.фан.ном... дисс. – Тошкент, 2004.
5. Ёриев Б. Язык поэзии М. Шайхзаде: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Т., 1979.
6. Жуманазарова Г. “Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил)”. Тошкент, 2012.
7. Жўраева Г.А. Ўзбек болалар шеърлятида ҳажвий образ яратиш маҳорати (XX асрнинг 80-90-йиллари материаллари асосида): Фил.фан.номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2010.
8. Йўлдошев Б., Шодиев З. ”Уфқ” трилогиясининг лингвопоэтик таҳлили. Самарқанд.
9. Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати: Филол. фан.ном... дисс. – Тошкент, 2000.
10. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд: Зарафшон, 1992.
11. Келдиёрова Г. Ўзбек бадиий нуткида антитеза (Э. Воҳидов шеърляти мисолида): Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. - Тошкент, 2000.
12. Қиличев Э. Архаизмы и историзмы в прозе Садриддина Айны: Автореф. дисс...канд.филол.наук. – Ташкент, 1969.
13. Махматмуродов Ш. Язык «Дивана» Хамза Хаким-заде Ниязи: Дисс... канд. филол. наук. -Тошкент, 1981.

14. Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста (на материале современной узбекской поэзии), Автореф. дис... доктора филол. наук, Ташкент, 1992.
15. Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири, 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004.
16. Низамханов Х. Выбор слова как проблема литературно-стилистической обработки текста : Автореф.дис. ... канд.филол.наук. – Ташкент, 1980.
17. Нормаматов С. Абдулла Авлоний шеърятти лексикасининг маъновий-услубий хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. — Тошкент, 2011.
18. Рихсиева Г. Шеърятдаги гапларнинг актуал бўлинишида анафоралар ўрни: Филол. фан. номзоди ... дисс. - Т., 1999.
19. Рустамов М. Гадоий девони тилининг лексикаси: Филол. фанлари номзоди ... дисс, - Тошкент, 1992.
20. Тожибоев М. Муҳаммад Шайбоний девони тилининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. - Тошкент, 2004
21. Тўланова Н. Тўксонинчи йиллар ўзбек шеърятти тилидаги бадий санъатларнинг лисоний-услубий таҳлили: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. - Т., 2008.
22. Тўрабекова С. Гафур Гулом поэмаларининг тили ва стили ҳақида: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. - Тошкент, 1961.
23. Умуркулов Б. Бадий адабиётда сўз. – Тошкент: Фан, 1993.
24. Умуркулов Б. Лексические особенности современной узбекской поэтической речи: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Т., 1983.
25. Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент, Фан, 1990.
26. Умуркулов Б. Сўз танлаш санъати. – Тошкент, Фан, 1985.
27. Хамидов З. Лексико-семантическое и лингвопоэтическое исследование языка "Лисан ат-тайр" Алишера Навои: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Т., 1982.

28. Ҳайдаров А. Бадиий тасвирнинг фоностилистик воситалари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. - Тошкент, 2008.
29. Ҳасанов А.А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадииятини таъминловчи лексик-стилистик воситалар. Филол. фанлари номз...дисс. автореф. Тошкент, 2010.
30. Чориев Б. Гафур Ғулом поэзияси лексикасининг айрим масалалари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. - Тошкент, 1972.
31. Шадиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърининг лингвопоэтикаси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. - Т., 2007.
32. Шомаксудов А. Язык сатиры Мукамии (Лексика и фразеология): Автореф. дисс ... канд. филол. наук. - Т., 1956.
33. Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари доктори ... дисс. автореф. - Тошкент, 2009.
34. Яқуббекова М.М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. Филол. фан. д-ри. ... дис. автореф. – Тошкент, 2005.

Имий журналдаги мақолалар

1. Аҳмад. С. Фарғонада биттагина. // Халқ сўзи. 2000 йил 19 апрель.
2. Бобоев Т. Поэтика илмини ўқитиш манбалари // Халқ таълими, 1996, № 1.
3. Гафуров И. Камалак: Адабий-танқидий йиллик тўплам. – Тошкент: Ёш гвардия, 1989.
4. Маҳмудов Н. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1987, 4-сон.
5. Маҳмудов Н. Нутқ маданияти ва тилнинг эстетик вазифаси // Филология масалалари. 2006, №2 (11).
6. Маҳмудов Н. Ойбек шеърининг ўхшатишларнинг лингвопоэтикаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1985, 6-сон.
7. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули. Ўзбек тили ва адабиёти, 2011, 3-сон.

8. Мирзаев И. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари матни поэтикаси таҳлилига бағишланган янги тадқиқот ҳақида. –Филология -10. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ, 2010.
9. Мирқосимова М. Бадиий тил ва эпик тасвир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1986, № 1.
10. Н.Жумаев. Мағзи тўқ шеърлар // Шарқ юлдузи. 1986. - №11.
11. Расулов. А. Бетакрор ўзлик. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2009.
12. Рўзимухаммад Б. Тил – асарнинг танаси // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1997. 5 декабрь,
13. Сабриддинов А. Сўзнинг поэтик контекстдаги хусусиятлари Ўзбек тили ва адабиёти, 1990, № 6.
14. Самадов Қ. Сўз ва шеърини ифода. – Гулистон, 1994.
15. Сафо Матчон, З.Иброҳимова. Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2007 йил 2 ноябрь.
16. Солижонов Й. Бадиий асарда монологик нутқ // Ўзбек тили ва адабиёти, 2004, 3-сон.; Бадиий нутқ // Ўзбек тили ва адабиёти, 1979, 2-сон.
17. Тўхтабоев Х. Полосонлик Анвар Обиджон // Халқ сўзи. 2006 йил 20 май.
18. Усмонов С. Метафора. - «Ўзбек тили ва адабиёти», 1964, 4-сон.
19. Ҳамроева Ҳ. 1) Ахир менинг қарзим куп она тупроқдан... // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1996 йил 8 ноябрь; 2) Мўъжазу мўъжиза шеър ифори // Тонг юлдузи. 1997 йил 16 июль.
20. Чориев Б. Ғафур Ғулом шеърини тили. – Тошкент, 1990.
21. Шукуров Н. Бадиий услуб ва бадиий тил // Ўзбек тили ва адабиёти, 1972, 4 сон.
22. Эгамбердиева Ш. Ғ.Ғулом асарлари лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1996, № 1.

Internet saytlari

1. www.ziyonet.uz
2. www.ziyouz.com

3. www.anvarobidjon.narod.ru

4. www.kh-davron.uz